

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

UMUMIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti dekani

_____ dots. Rabbimov M.
“ _____ ” _____ 2012 y.

**5111700 –Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**Kichik maktab yoshi o'quvchi shaxsining tarkib topishda faoliyatning
ahamiyati mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: **Mamaraximov D** _____

Ilmiy rahbar: **p.f.n. R. Atamurodova** _____

Ishni himoyaga tavsiya etaman **p.f.n. R. Atamurodova** _____
(ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

**BMI Umumiy psixologiya kafedrasi yig'ilishining qarori
bilan (Qaror № _____ y) himoyaga tavsiya etilgan.**

Kafedra mudiri:
Dots. Yo.R. Alimqulov _____
(Ismi, va sharifi) (imzo)

Jizzax - 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILAR PSIXIKASINING TUZILISHI VA RIVOJLANISHI.....	8
Boshlang`ich sinf o`quvchilar shaxsining shakllanishida	
1.1. faoliyatning roli.....	8
1.2. Bilish jarayonlarining kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda taraqqiyoti va rivojlanishi.....	16
II BOB. O`QITUVCHINING O`QUVCHILAR FAOLIYATINI SHAKLLANISHIDAGI ROLI.....	38
2.1. O`quvchi shaxsining tarkib topishida o`quv faoliyatining roli..	
.....	38
2.2. O`quvchi shaxsining tarkib topishida o`yin faoliyatining roli. . .	
.....	43
2.3. O`quvchi shaxsining tarkib topishida mehnat faoliyatining roli.	
.....	51
UMUMIY XULOSALAR.....	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

Respublikamizda mustaqillik barq urgandan keyin juda katta o`zgasharishlar sodir bo`lmoqda. Davlat mustaqilligini vujudga kelishi, mulk shakllarining o`zgarishi, boshqaruvning yangi mehanizmlarni foydalanishi milliy o`z-o`zini anglashning yuksalishi talim oldida turgan muammolarning mohiyati, talim tizimi mazmuni, jamiyatda sodir bo`layotgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o`zgarishlarga mos keladigan qayta qurishni talab etdi. Bugun talimga keng qamrovli davrda boshlang`ich talim tizimini samaradorligini oshirish ko`p jihatdan bu jarayonning qonuniyatlari bilan bog`liq.

Prezidentimizning 2011 yilning asosiy yakunlari mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi **“2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi”** mavzusidagi ma`ruzasi asosida yaratilgan o`quv qo`llanmasiga e`tibor qaratsak.

Yurtimiz ta`lim va tibbiyot muassasalarini zamonaviy talablar va xalqaro andozalar asosida rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi ishlarni tizimli amalga oshirish maqsadida 2011-yilda byudjetdan tashqari Ta`lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta`mirlash va jihozlash jamg`armasi tashkil yetildi va u 2012-yilning birinchi kunlaridan ish boshladi.

SHu borada biz uchun o`ta muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi ahamiyatga yega bo`lgan yana bir masalaga to`xtalib o`tishni joiz deb bilaman. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasi barchamizning jiddiy va doimiy e`tiborimiz markazida turishi zarur.

Bu yil yurtimizda 516 ming nafardan ziyod yigit-qiz kollej va litseylarni tamomlaydi. Ularning qaerga ishga joylashishini hozirdanoq aniq belgilab olish, korxonalar bilan ishlab chiqarish amaliyotini o`tash va undan so`ng ishga qabul

qilish bo'yicha shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishini ta'minlash – bunday masalalarni alohida nazoratga olish lozim.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari manfaatdor korxonalar va idoralar bilan birgalikda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirish yuzasidan chora-tadbirlar majmuini bir oy muddatda ishlab chiqsin va uni shu yilning 1-iyunigacha amalga oshirsin.

Shu sababli talim jarayonining uslubiy talimotining ahamiyatini kamsitmagan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish, mehnat va o'yin faoliyatining psixologik xususiyatlarini talim jarayonining samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini alohida takidlash muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishda o'quvchilar o'qish, mehnat va o'yin faoliyatlarining psixologik xususiyatlari va qonuniyatlarini bilish, talim jarayonida malaka, nutqlarini shakllantirishning psixologik tomonlarini bilish mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Malakaviy bitiruv ishning predmeti.

O'quvchilarda o'quv, mehnat va o'yin faoliyatini shakllanishini nazariy va amaliy asoslashdan iborat.

Malakaviy bitiruv ishning asosiy maqsadi:

O'quv, mehnat va o'yin faoliyati shakllanishi orqali shaxs shakllanishining mexanizmlarini yoritib berish.

Malakaviy bitiruv ishning ilmiyligi.

O'quvchilar faoliyatini psixologik qonuniyatlarini yani mukammal o'rganganligiga qaramasdan uning boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllanishda o'qituvchining rolini o'ziga xos xususiyatlari etarli o'rganilmagan. Bu sohaning boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllanishning psixologik mexanizmlarini o'rganish bu sohadagi ilmiy malumotlarni to'ldiradi.

Malakaviy bitiruv ishning amaliy ahamiyati.

Talim to'g'risidagi qonunda belgilab berilganidek hozirgi kunda bilim o'zlashtirish o'quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarning shakllanishini oshirish emas, balki talim jarayonida o'quvchilar faoliyat strukturasi shakllantirishga qaratilishi kerak. Bu o'z navbatida bilimlarni o'zlashtirishni oddiy qoidani yodlash orqali emas, balki, o'quvchining o'qituvchi bilan birgalikdagi aktiv faoliyatida amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi. Shunday ekan malakaviy bitiruv ishining materiallari o'qituvchilar uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish, mehnat va o'yin faoliyatlarini shakllantirilishini o'rganishning samardorligini oshirishda uslubiy tavsiya bo'lib, xizmat qilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish, o'yin va mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish quyidagi vazifalarni hal etishni talab etadi.

1. Mavzuning o'rganganligini psixologik va pedagogik adabiyotlarda yaratilishini tahlil qilish.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini, tuzilishining psixologik yoritish.

3. Malaka va odatlarning o'quvchilar o'qish faoliyatidagi amaliyotning yoritilishi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'yin faoliyatini, tuzilishining psixologik jihatdan yoritish.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnat faoliyatini, tuzilishining psixologik yoritish.

6. O'quv, o'yin va mehnat faoliyatlarini kichik yoshdagi bolalarda shakllanishida o'qituvchining roli psixologik jihatdan tahlil qilish.

Malakaviy bitiruv ishning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlari, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», DTS, Prezident I.A.Karimov asarlaridagi ma'naviy tarbiya, sog'lom avlodni shakllantirish, milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirish haqidagi fikr-mulohazalari,

M.Maxsudova F.Akramova kabi olimlarning ilmiy fikrlaridan va kitoblari foydalanildi.

Malakaviy bitiruv ishning umumiy mazmuni:

Bitiruv malakaviy ishi 2-bob 5 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi maqsadi va vazifalari, ilmiyligi, amaliy ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Ishning birinchi bobida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixikasining tuzilishi va rivojlanishi, boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishida faoliyatning roli va bilish jarayonlarining kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda taraqqiyoti va rivojlanishining psixik xususiyatlarini o'ziga xos xususiyatlarini psixologik jihatdan tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobida faoliyatning o'quvchi shahsini shakllanishidagi rolini psixologik jihatdan tahlil qilish. O'quvchilarda o'quv faoliyatini shakllanishda o'qituvchining roli, o'quvchilarda o'yin faoliyatini shakllanishda o'qituvchining roli hamda o'quvchilarda mehnat faoliyatini shakllanishda o'qituvchining rolining ahamiyatiga qaratilgan nazariy fikrlar yoritilgan. Ishning xulosa qismida har ikkala bobdan kelib chiqib, umumiy xulosalar yoritilgan.

I - BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILAR PSIXIKASINING TUZILISHI VA RIVOJLANISHI

1.1. Boshlang`ich sinf o`quvchilar shaxsining shakllanishida faoliyatning roli.

Odamning faoliyati hamisha boshqa kishilar bilan ma'lum munosabatlar sistemasida amalga oshiriladi. Odamning faoliyati boshqa kishilarning yordamlashishlarini va qatnashishlarini talab qiladi. Odam faoliyatining natijalari tashqi olamga turmushga va boshqa kishilarning taqdiriga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuning bilan faoliyatning hamisha odamning narsalarga bo'lgan munosabatlarigina o'z ifodasini topib qolmay balki odamning, boshqa kishilarga bo'lgan munosabati ham o'z ifodasini topadi. Komunistik jamiyat qurayotgan kishilarning faoliyati uchun mehnatda o'zaro yordamlashish, sotsiolistik munosabatga kolektivlik va mehnat tashabuskorligi harakterlidir.

Boshqacha qilib aytganda faoliyatda insonning shahsi ifodalanadi. Shuning bilan birga faoliyat odamning shahsini tarkib topdiradi. Masalan: yaxshi tashkil qilingan do'stona kollektivda bitta maqsadga qaratilgan ijtimoiy do'stona faoliyatda qatnashish odatda kollektivimiz uyushqoqlik o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtira olish sifatlarini rivojlantiradi. A. S. Makorenko shahsning tarkib topishida faoliyatning etakchilik rolini tushirib, uni o'z tomonidan ishlangan tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyotga asos qilib olgan edi. A. S. Makorenko bunday degan edi "men bolalar hayotini ma'lum tajriba tariqasida, muayyan odamlar tarbiyalaydigan qilib tashkil etishni talab qilaman..." Shu talabga muvofiq ravishda o'z kolaniyasidagi tarbiyalanuvchilar jamoaning butun hayoti shunday tashkil qilingan ediki, bunda qilinadigan har turli faoliyat turlariga jalb qilingan edilar. (masalan: bitta maqsadga intilish intizomga so'zsiz rioya qilish soflik, javobgarlik, qattiylik) mana, masalan: to'g'ri panodlar (yurishlar) va tungi navbatchiliklar kolonislardan qo'rqish hissini engishni chidash va o'zini tutish sifatlarini namoyon qiishni sifatlarini talab qilar edi. Buning yordamida bola narsalardan

insoniy tarzda foydalanishni va ularning ijtimoiy amaliy ahamiyatini o'qib olib boshlaydi. Masalan: karavatchaga yotib uxlaydi, stulchalarga o'tiradilar, jumrakni ochishni o'rganadilar, koptok bilan o'ynaydi, qalam bilan rasm chizadi va boshqa shu kabilar.

Ana shakllardagi antiblik bilan birgalikda bolalarda kominativ hulq – atvor rivojlanadi. Kominikativ ya'ni aloqa bog'lashga qaratilgan hulq – atvor shakllari bolaning o'z ehtiyojlarini va hohishlarini qondirishga foydalanadigan hamda ijtimoiy talab va informatsiyalarni o'zlashtirishda yordam beradigan asosiy vositadir. Bunday hulq – atvor avval benutq formada amalgam oshiriladi. (bolaning baqirishi yuz harakati – mimika qo'l hamda yuz – qo'llari bilan qilladigan ifodali harakatlari). Bola 7 – 8 oylik davrdan boshlab oldin. Passif, undan so'ng esa aktiv tarzda insonlar o'zlashtirish aloqaning o'zaro munosabat va informatsiya almashishning eng asosiy vositasi bo'lgan nutq orqali aloqa qilishni bilib oladi. Nutqni o'zlashtirish obrazlarni narsalar bilan ajratish narsalarning mazmunini farq qilish hamda ularni xotiraga mustahkamlanib ish – harakatlarini boshqarishda foydalanishning eng muhim shart – sharoitlarini yuzaga keltiradi.

Inson o'zining hilma – hil faoliyatlari orqali tabiat va jamiyatdagi, turli – tuman narsalar va hodisalarni biladi, boshqa odamlar bilan ijtimoiy munosabatga kirishib o'zini shahs sifatida namoyon qiladi. Odamning faoliyati o'zining skruktirasi jihatdan ancha murakkabdir. Inson faoliyati hamma vaqt ayrim ish harakatlarda aniqrog'i ayrim harakat va amallardan tarkib topadi. U yoki bu faoliyatning tarkibiga kiruvchi harakat va amallar anglangan ba'zan anglanmagan bo'lishi mumkin. Masalan biron katta yoshli odam ma'lum faoliyatida kirishishdan oldin, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, faoliyatdan kelib chiqadigan natijani, ya'ni faoliyatning maqsadini to'la aniqlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar har kuni ko'p vaqtini o'yin faoliyatiga undovchi maillarini kamdan – kam paytlarda anglaydilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarni oladigan bo'lsak, ular o'zlarining o'qish faoliyatiga bo'lgan motivlarni deyatli anglab etmaydilar. Mehnat faoliyati bilan shug'ulanuvchi katta yoshdagi

odamlarda faoliyat tarkibidagi barcha harakat va amallar albatta anglangan bo'ladi.

Shuni ham nazarda tutish zarurki, faoliyatni amalgam oshirish usullaridan ko'pchiligi ondan minimal ishtiroki bilan ajratiladi. Boshqacha qilib aytganda faoliyatni amalga oshirish avtomatlashgan malakalarga aylangan bo'ladi. Shuning uchun bunday faoliyat turlarini odam ortiqcha o'ylamay – netmay, avtomatik ravishda amalgam oshiradi.

Ma'lum bir faoliyatni amalgam oshirishda qilinadigan harakatlar sistemasi ish maqsadi bilan bu maqsadga qaratilgan narsalar hususiyati va sharoitlari bilan bog'liq bo'ladi. Ana shu misollarda qilinadigan ishlarning maqsadi bir hil, lekin uning ob'ektlarining har – hilligi harakatlar sistemasining turlicha bo'lishini talab qiladi.

Buyuk fizoliklardan P. K. Anohin, N. A. Bernshtiy va A. E. Asrat'yanlar o'tkazgan tajribalaridan ma'lum bo'lishicha faoliyat davomida ayrim ish - harakatlarining bajarilishini sensor nazorat qilish (ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, muskullar bilan sezib) shu harakatlar amalgam oshirilayotgan sharoit bilan ham bog'liq bo'ladi. Bolaning ichki olami atrofdagi tashqi olam undagi turli – tuman narsa va hodisalar katta odamlar bilan qiladigan munosabatlardan paydo bo'ladi. Masalan bolalar o'z – o'zlari bilan gaplashib atrofdagi narsalar haqidagi fikr yuritadigan bo'ladilar. Anashu murakkab hodisani ya'ni tashqi olamdagi narsa bilan qilinadigan faoliyatning ichki psixik faoliyatga aylantirilishini faoliyatning interiorizatsiyasi deb yuritiladi. Demak ichki psixik dunyoning tashqi narsalari dunyosidan kelib chiqishini interiorizatsiya deb ataladi.

Ma'lumki odamning ichki dunyosi paydo bo'lgandan so'ng har bir narsani, har bir harakatni oldin ichida o'ylab so'ngra amalgam oshiradi. Oldin ichida o'ylab so'ngra bevosita tashqi munosabatga o'tish faoliyatining eksteriorizatsiyasi deb ataladi. Agarga interiorizatsiya va eksteriorizatsiya so'zlarining lug'aviy ma'nosi ochadigan bo'lsak interiorizatsiya “ichki ishga – aylanish” va eksteriorizatsiya “tashqi ishga aylanish” degan ma'noni anglatadi.

Odam boshqa kishilar bilan qiladigan tashqi munosabatlari orqali nutqni egallab ichki dunyosiga ega bo'lib borar ekan, bu narsa shu chog'da ko'z o'ngida yo'q bo'lgan narsalar haqida fikr yurgizish imkonini beradi. Shuning uchun odamning aqliy taraqqiyotida interiozizatsianing ahamiyati g'oyat kattadir. Shunday qilib odam faoliyatining skrukturasi ehtiyojlarni qondirishdan ibotar bo'libgina qolmay u jamiyatning maqsadlari talablari bilan ham ko'p jihatdan bo'g'liqdir. Odam faoliyatining ko'zga tashlanib turadigan eng asosiy belgisi maqsadini anglash va uni n amalgam oshirishda qilinadigan ish harakatlaridan iboratdir.

Ma'lumki, inson o'z tabiati jihatidan faol (ya'ni har doim ma'lum bir maqsad asosida harakat qiladigan) faoliyat mavjuddir. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha psihik jarayonlari uning turli – tuman faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Odam faqat ishlab yotgan paytidagi faoliyotdan to'htashi mumkin. Shuning uchun u xaqli ravishda ayta olmaymizki, odamni faoliyatidan to'xtashi uni taraqqiyotidan to'htashi degan ma'noni anglatadi.

Odamning ongi ham faoliyat jarayonida tarkib topgandir. Faoliyat jarayonida inson ongi tabora rivojlanib takomillashib boradi. Ijtimoiy mehnat faoliyatida yuzaga kelgan ong o'z navbatida, faoliyatga ta'sir qilib boraveradi. Bundan inson faoliyati bilan inson ongining o'zaro uzviy bog'liqligi namoyon bo'ladi. Inson ongi bilan faoliyatining birligi jarayoni ham ana shundaydir.

Burjua psixologiyasining ayrim namoyondalari odamning ayrim faoliyati tashqi ta'siri asosida o'z – o'zidan yuzaga kelaveradi, deb qaraydilar. Masalan: bineforistlar har qanday faoliyat bilan tashqi stemul ta'sirida organizmning javob riaksiyasi ta'sirida yuzaga kelaveradi deb qaraydilar. Buheviaristlar har qanday inson faoliyatining aniq formulasini ham belgilaydilar, chunonchi har qanday faoliyat S – R shaklida (S – tashqaridan ta'sir qiladigan stimul. R – esa organizmning javob riaksiyasi) reflector harakar singari avtomatik tarzda tushuntirish bilan mutloqo kelishib bo'lmaydi.

Marksistik diolektik materializm ta'limotiga asoslangan sovet psihologiyasi har qanday inson faoliyati ma'lum konkret motuvlar asosida

yuzaga keltiruvchi motivlari odamning turli – tuman ehtiyojlari odamning turli – tuman ehtiyojlari qiziqishlari va maqsadlaridir. Lekin ehtiyojlar hamma vaqt ham faoliyatning motivlari bo'la olmaydi. Inson faoliyati ko'pchilik hollarda anglangan maqsad. Ijtimoiy burch, ijtimoiy talablar taqozasi bilan yuzaga keladi. Buni shunday tushunmoq lozimki, odam hamma vaqt o'z shahsiy ehtiyojini qondirish yuzasidagina biron faoliyat bilan shug'unlanmaydi. Odam ko'pchilik hollarda jamiyat talablarini o'z oldidagi ijtimoiy burchini bajarish maqsadida biron faoliyat bilan shug'ullanadi, aktivlik ko'rsatadi. Fidokorona mehnat qiladi. Inson faoliyatining ijtimoiy mohiyati ham ana shundadir.

Psixologik nuqtaiy – nazaridan inson faoliyatiga shunday ta'rif berish mumkin. Faoliyat anglangan maqsad bilan boshqariladigan odamning ichki psixik va tashqi jismoniy aktivligidir. Hayvonlar o'zining faoliyati aktivligi tufayli tevarak atrofdagi muhitga bo'ysinib, muvofiqlanib yashaydilar. Odam o'z faoliyati aktivligi orqali tevarak atrofdagi muhitni o'ziga bo'ysindiradi, uni o'zgartirib ehtiyozlarga maslashariladi. Odam ma'lum faoliyatida bo'lar ekan, u har doim qat'iy bir maqsad asosida harakat qiladi. Inson faoliyatining o'ziga hosligi uning har doim ma'lum maqsadga qaratilganligidir. Inson faoliyatining bu juda muhim psixologik hususiyatini qayt qilib, Q. Markis bunday deb yozgan edi. "O'rgamchak to'quvchiga ishiga o'xshagan ishlarni qiladi, asallari esa o'zining mum katakchalarini uyoltirib qo'yadi.

Ammo har qanday yomon axhetektor ham eng yaxshi asal aridan dastavval shu bilan farq qiladi – ki u bir binoni qurishdan oldin uni avval miyasida qurib oladi. Mehnat jarayonining oxirida hosil qilingan natija quruvchining idialida ya'ni tasavvurida dastlabki paytidanoq mavjud edi.

Odam tabiat tomonidan berilgan formani o'zgartirish bilan chaklanib qolmaydi, u tabiat tomonidan berilgan forma bilan birga o'z hatti – harakatlarining usuli va harakatini qonun sifatida aniqlab beruvchi va o'z irodasini bo'ysindiruvchi ongli maqsadni ham o'zgartiradi.

Maqsad bo'lmagan faoliyat ham bo'lmaydi. Impulsiv harakatlar shaxsning maqsadsiz individual moillari tufayli yuzaga keladi. Shu sababli impulsiv

harakatlari ko'pincha egoistik, ya'ni g'ayri ijtimoiy harakterga ega bo'ladi. Masalan: haddan tashqari g'azablangan yoki nihoyatda kichik ehtirosga uchragan odam impulsiv harakat qiladi. Lekin bundan impulsiv harakatlarda ong mutloqo ishtirok etmaydi, degan, degan ma'no kelib chiqmaydi. Impulsiv hrarakatlarda ong mutloqo ishtirok qilmaydi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Impulsiv harakatlarga ham ma'lum darajada ong ishtirok qiladi. Bundan faqat shahsiy motivlargina anglanadi.

O`quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o`quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Etakchi bo`lgan o`quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar o`yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o`quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko`rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog`liq bo`lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O`quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o`qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari ortasida o`z o`rniga ega bo`lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o`rin yoki mavqeiga erishish uchun ham bola yaxshi o`qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimny ravishda o`zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo`lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo`riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog`cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida shuningek o`smirlik dovrda ham yaqqol ko`zga tashlanadi maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqida fikr va bergan baholariga qarab, o`zlariga o`zlari baho beradilar. O`quvchining beradigan bahosi, tug`ridan-to`g`ri o`qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog`liq. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarlarda beradigan baholari turlicha yuqori adekvat yoki past bo`lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo`lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatada tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini

bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgalab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davr muvaffaqiyatga erinish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o`qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o`zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatiniig shakllantirish asosan kattalarga bog`liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan itoatkor, ochiq, xususiyatli bo`lsa, unda asta-sekinlik bilan bo`ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlashib boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarnish shakllanishlar ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalarini, asosan», kimlargadir taqlid qilgan holda o`zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko`proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish keraki, unda bolaga biron bir masul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o`zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin Ana shu his bolada mustaqil bo`lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

7-11 yoshli bolalar o`zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o`z-o`zini anglashishdan jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o`zlarining ismlariga yanada ko`proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o`zining tashqi ko`rinishga va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o`z-o`zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining ohiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o`zlarining yuz-tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi o`quvchining o`quv faoliyati jarayonida o`zidagi xulq-atvorni va faoliyati o`zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o`z faoliyatini o`zi o`zgartirishga hamda bilim olish jarayoniga bo`lgan qiziqishning qaror topishiga yordam beradi. O`quvchi xulq-

atvorning motivaashtirishi ham o`zgaradi. Bunda do`stlari va jamoannng fixrlari asosiy motivlar bo`lib qoladi. Axloqiy his-tuyg`ular va shaxsning irodoviy xususiyatlari shakllavadi.

5-6 yoshlarda ko`zga tashlangan bolalarning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi. O`smirlik davrining boshlariga kelib, juda ko`plab shaxsiy fazilatlar shakllanib bo`ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilishi jarayonida ham ko`rinadi. Bu davrda bolalarining bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko`nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sayuflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy maxsus layoqatlar ko`zga tashlamadi. Kichik maktab davrida xayot uchun nihoyatli axamiyatli bo`lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o`z-o`zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishga olib keladi.

Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to`liq shakllanib bo`lgani uchun ham ularga ta'msh berishda kattalarga qo`llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin, Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o`qituvchi bilan bo`ladigan munosabatga orqali erishish mumkin, 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o`rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyat ortadi. Bu munosabatlarida kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg`iz hold sevimli mashg`ulotlar bilan shug`ullanishlari mumkin shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi.

1.2. Bilish jarayonlarining kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda taraqqiyoti va rivojlanishi.

Tajribadan malumki bolalarda ixtiyorsiz diqqat durustgina rivojlangan bo`lib, chunki talim jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o`shish uchun muhim shart- sharoitlar mavjuddir. Boshlang`ich sinf o`quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi o`quvchida beixtiyor his- tuyg`ular uyg`otadi. Irodaviy zo`riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O`quv materiallarining turli-tumanligi ixtiyorsiz diqqatning to`planishi, markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy tasir etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o`qitishda ko`rsatmaliliklardan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan materialni mantiqiy jihatdan o`zlashtirishga, uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumlashtirishga to`squinlik qiladi.

Ularda ko`rsatmalilikka asoslangan dinamik stereotip paydo bo`lishi ham mumkin. Suniy to`siqlar foyda beruvchilarni alomatlardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko`rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiriladi, bola tashqi belgilarga etibor berishga odatlanib, muhim belgilardan chetlasha boradi.

Ma'lumk ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o`quvchilarning qiziqishi bilan bevosita bog`lanib ketsa, tabiiyki, ular faqat maroqli, quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo`lib, qoladilar. Natijada o`ta nozik, ya'ni tashqi qo`zg`atuvchilar ta'siriga beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustaxkamlanadi. Odatlanish murakkab o`quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug`diradi. Shuning uchun K.D.Ushinskiy bolani faqat o`zini qiziqtirgan narsa bilan emas balki uni qiziqtirgan narsa bilan ham shug`ullanishga o`rgating, bola o`z burchini bajarishdan qanoatlanish uchun ishlaydigan bo`lsin, deb uqtirgan edi. Birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari diqqatining o`ziga xos xususiyatlaridan biri uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va ob'ektda uzoqroq kuta olmaydilar. Bunda tormozlanish o`zaro nomunofiq harakat qiladi. O`qish mashg`ulotlarida tutilish to`xtab qolish, qiroat suratning kamayishi, tovushlarning

tebranishi va pasayishi ba'zida xarf, ibora gaplar tushib qolishi xollari ana shu fizologik mexanizm ta'sirida paydo bo`ladi.

Qator tadqiqotlar birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari darsda faqat 30-35 daqiqa diqqat bilan o`tirishi o`z diqqatini muayyan obektga to`plashi va unda ushlab turishi mumkinligini ko`rsatadi. Shuning uchun mashg`ulotlarda qisqa tanafuslar o`tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Professor N.F.Dobrenin: «3-4 sinf o`quvchilari o`z diqqatlarinibutun bir dars davomida saqlab tura oladilar. Lekin ular uchun ham qisqa tanafuslar foydalidir. Shuningdek vaqti vaqti bilan mashg`ulotning turini almashtirib, suratini o`zgartirib turish, amaliy va nazariy ma'lumotlarni qo`shib olib borish lozim», - deydi.

O`quvchilar diqqatining xususiyati ko`proq mashg`ulotning suratiga bog`liqdir. Masalan: mashg`ulot suratining o`rta tezligi yoki xaddan tashqari sustligi diqqatning barqarorligi va to`planishiga salbiy ta'sir etadi.

O`quv mashg`ulotlarning o`rtacha suratida o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayoni kchik maktab yoshidagi o`quvchilarning ixtiyoriy barqaror, mustaxkam, kuchli, to`planuvchan, taqsimlanuvchan, faol, ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish, misol va masalalar echish, mashqlarni bajarish takrorlash irodaviy zo`r berishda ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Shuningdek, uning eng zo`r xususiyatlari takomillashadi bu esa ongli boshqarish imkoniyatini beradi.

Bolalarning diqqati o`qish faoliyatiga doim maqsadga muvofiq, ishtimoiy motivlar hamda ularda paydo bo`layotgan yangi xislari (ma'suliyatlilik, javobgarlik, uyalish xislari) bilan bir paytda rivojlanadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo`lsa uni taqsimlash tashqi kuzatuvchanlikni qarshiligini engib ongli ravshda boshqariluvchi bolsharish uquvi shakillana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xotirasining eng muxum xususiyatlaridan biri-so`z mantiq xotirasi va ma'nosiga tushunib eslab qolish salmog`ining ortishidir. O`quvchi o`z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash jarayonlarini faoliyatining maqsadga muvofiqlashtirish imkoniyatlariga ega bo`ladi.

Yuqorida aytilganlik birinchi signal sistemasini ikkinchi sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli o`quvchilarda mantiqiy xotiradan ko`ra ko`rsatmali – xarakterli xotira muximroq rol o`ynaydi. Shuning uchun ular nazariy qonun qoidalardan, movhum tushunchalardan ko`ra yaqqol ma'lumotlar. Axborotlar voqea va xodisalarni obrazlar va narsalarni tezroq va mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog`lanishiga axamiyat bermay ma'nosiga tushunmay, quruq eslab qoladilar.

O`rganilayotgan materiallarni mantiqiy taxlil qilmay, yodaki o`zlashtiradi. Buning sabablari: 1) Ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlanganligi ma'lumotlarni aynan o`zgarishsiz eslab qolish, imkonini yaratadi. 2) O`quvchilar o`qituvchi qo`ygan vazifani anglab etmaydilar natijada uning «to`g`ri tushintirib ber» degan ta'labini so`zma so`z takrorlash deb biladilar. 3) Ularning nutq boyligi etishmasligi (ilmiy atamalar va til qonunlarini bilmasligi) materialni ijodiy to`ldirish, unga ko`pincha qilish imkoniyati yo`qligi uni so`zma-so`z qaytarishni osonlashtiradi. 4) o`quvchilar matinni to`g`ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydi. A.A.S. eslab qolishning to`g`ri usuli sifatida matindagi manodor so`zlarni guruhlarga ajratish tayanch nuqtani topish so`zlab berish uchun reja tuzish va o`tilgan mavzularni idrok etilgani xolda yangi mavzuni takrorlashni tavsiya qiladi.

Ta'lim jarayonida o`quv materiallarning ma'nosina mohiyatini turli muloxazalarni, dalillarni ilmiy asos bilan eslab qolish vaesga tushurish orqali o`quvchilarda mantiqiy xotirada takomillashadi. Ularni A.A.Smirnov tavsiya qilgan usul va vositalar bilan qurollantirish o`qituvchining vazifasi hisoblanadi. Aqliy mehnatda mutaqillikni vujudga keltirmay bilishga intilish qobiliyatini o`stirish mumkin emas. Shuning uchun bolalarga izohli o`qish masalaning shartni sharxlash muammosi vaziyatni yaratish va hal qilishini o`rgatish muhim ahamiyatga ega. Ixtiyoriy eslab qolish va ixtiyoriy esga tushurishning mahsuldorligi ko`p jihatdan o`quvchilar ilmiy faoliyatining darajasiga bog`liq. Aqliy faoliyat darajasi ularning eslab qolishini tashkil qilish va boshqarish usullarni egallashiga uzviy aloqadordir.

Mehanik «xotira» usullariga tarif yoki qoidani soʻzma- soʻz eslab qolish. Oʻz soʻzi bilan aytib bersa boʻladigan materialning mohiyatini eslab qolish birlamchi va ikkilamchi qismlarga ajratish bir joyga toʻplash eng zarur tushunchalarga alohida etibar berish kiradi. Eslab qolish esga tushurish esda saqlashning samaradorligini maqsadni anglash va unga intilish negizida vujudga keladi. Xotiraning samaradorligi oʻqish motivlari bevosita bogʻliqdir. T.N. Bolar oʻz tajribasida bir guruh oʻquvchilarga oʻquv matnini bundan keyin sira kerak boʻlmasligini 2-guruhga undan tez foydalanishini aytib oʻzlashtirishni tavsiya qilgan. Olingan natijalariga koʻra birinchi guruh faoliyatida qoʻllash ustanofkasi yuqori samara bergan matn tez eslab qolgan va uzoq vaqt esda saqlangan. L.V.Zakkovning tadqiqotida ham eslab qolishga intilishning roli oʻrganilgan uzoq vaqt eslab qolishga intilish ham yaxshi samara berishi isbotlangan. Shunga asoslanib psixologiya faniga «uzoq vaqt eslab qolish» hamma vaqt «esda saqlash» iboralari kiritilgan.

Umuman kattalarning xususan oʻqituvchilarning muhim vazifalaridan biri oʻquvchilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilish ham tarkib toptirish ulrga eslab qolishning usullarnini fikr yuritish opperatsiyalarini (taqqoslash, tahlil qilish) oʻrgatishdan iboratdir.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun talim jarayonida oʻzini- oʻzi nazorat, materialni takrorlashda tekshirish esga tushurishni mashq qilishni unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi oʻquvchilrga eslab qolish va eslash usullari oʻrgatilmasa ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt toʻxtab qoladilar. Shuning uchun ham eslab qolish mehnat (K.D.Ushinskiy) hisoblanadi. Lekin oʻquvchilar materialni eslashni xush koʻrmaydilar va uni osongina tiklash yoʻlini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushurish va eslash usullarini oʻrgatish mantiqiy xotira oʻsishining garovidir.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar oʻz oʻquv faoliyatini tasiri talabi, imkoniyat va shart- sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning hayoli tevarak atrof tassurotlari dunyo ajoyibotlari, koʻrsatmalilik, tasviriy sanat asarlarini etarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Obrazlar, suratlar, chizmalar, shartli

belgilar nomalum narsalarning alomatlari tabiiy manzralari fazoviy tasavvurlar jonlanib o`quvchilarning hayolida paydo bo`ladi. Tashqi obraz yaratish bilan uzviy bog`liq bo`lgan tiklovchi hayol bolaning ruhiy dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Talim jarayonida bolalarning yorqin, tiniq, aniq, yaqqol tasavvur obrazlari hayol yordamida muayyan voqeylikka aylanadi.

O`rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o`qilgan badiiy asarladagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit butunligidan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi. O`qish davomida turmush tajribasida to`plangan taasurotlarni qayta tiklash, yangi belgilar bilan boyitish, ularni o`zaro birlashgan holatga keltirish, yangi obrazlar ijodiy izlanishlarning eng muhim omili- ijodiy hayolni shakllantiradi. Ijodiy hayolning eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolliqi mantiqiy qonunlarga uzviy bog`liqligi, g`ayritabiiy ajoyib-g`aroyib itaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o`quvchi hayolida turmushga, voqeylikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar ko`lami tobora kenayadi. Bu esa o`quvchida xodisalarni tanqidiy baholash ko`nikmasi paydo bo`lganini, bildiradi. Natijada uning hayoli taasurot qurshovidan bo`shaydi. Yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning obektiv qonunlarga suyangan holda baholash yanada takomillashadi.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar hayolining xususiyatlaridan yana biri hayotiy voqelik bilan fantaziyaning o`zaro aralashib ketishidir.

Malumki o`quvchi yaqqol voqeylik yoki xodisani o`zi yaratgan qo`shimcha obrazlar, tafsilotlar bilan boyitib boshqalarning diqqat- etiboriga uzatadi. Bu uning yolg`onchiligi emas, balki hayolning xususiyatidir. Ayrim bolalar haqiqitdan ham fantaziyaning aralash holatiga chindan ham ishonadilar. Bunda soddalik bilan ishonuvchanlik uzviy bog`lanib ketgan bo`ladi. Bazi hollardan mazkur yoshdagi o`quvchi boshqalarning diqqatini o`z axborotiga qo`yishi maqsadida ham fantaziya dan unumli foydalanadi. Bunday holat birinchidan bola o`zining sinfdagi o`rtoqlari orasida yoki oilada allaqanday kamsitilganda 2dan o`z tengqurlari yoki kattalar yaratishi jaryonida namoyon bo`lishi mumkin. Biron o`quvchilar hayolparastlikka, fantaziyalikka berilishining oldini olishga pedagog, umuman

kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar tafakkurining quyidagicha tadqiq qilganlar: tafakkurning yosh davrga xos xususiyati uning rivojlanishi tushunchalari shakllantirish omillari bolalar narsalarning o`zgarmaydigan bazi belgilari dolzarbligini payqab olmasligi ularga tafakkurning eng chuqur xususiyatlardan biridir. Buni J.Piyaje o`z tajribasida ko`rgan. Unda 7-8 yoshli bolalar xamirdan bir xil zuvala qilinsa, so`ngra ularning biridan kulcha yasalsa, xamirning miqdori bir xil bo`lmay qoladi, degan xulosa chiqarganlar. Malumki talimning dastlabki bosqichida bolaning umumlashtirishi juda sodda bo`ladi va faqat o`xshashlik belgisiga asoslanadi. Keyinchalik esa bolalar narsa va xodialrning tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlarga ajratish, narsa va xodisalarning xossalari, qonuniyatlarini, murakkab ichki bog`lanish va munosabatlarning muhim belgilari bo`yicha umumlashtirishga o`tadi. Birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari o`quv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi ko`rinishiga tayanib tashkil qiladilar: quyosh, mamaqaldiroq, chig`ir avtomobil, qush va hokazolar to`g`risida fikr yuritishda quyosh isitadi, yoritadi «mamaqaldiroq guldirlaydi», «sigir sut beradi» kabi hukmlar chiqaradi. Shuning uchun agar o`rganilayotgan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita aniqlash zarurati tug`ilsa, darrov ko`rinadigan misolga muvofiq qilinadi. R.T.Natodzeyning tajribasida kichik maktab yoshidagi kit bilan delfinni farqlash imkoniyati yo`qligi malum bo`lgan va ular ikkovini ham baliq deb ataganlar. Bu xol umumlashtiruv ko`zga tashlanuvchi tashqi belgi va asoratlarga qarab amalga oshirishini isbotlaydi.

O`quvchilar 3-sinfda o`tganidan so`ng umumlashtirishda moddiy dunyodagi voqeylikning eng muhim munosabat va bajarishlarni aks etuvchi ichki belgilarga tayanadilar. Jumladan suv, havo, va boshqa narsalarning issiqdan kengayishini umumiy muhim alomatga asoslanib umumlashtira oladilar.

Bundan tashqari o`simliklar dunyosi, ularning rivojlanishi, ko`payishi changlanishi kabi belgilarga tayanib «jonli tabiat» iborasini aytadilar.

Bolalarning mulohazalaridan «paxta dalada o`sadi», uni paxtakorlar etishtiradilar, zavodda tozalanadi va ip igriliadi kiyim kechaklar tayyorlanadi, (2-

sinf o`quvchilari). «bodom daraxti issiq o`lkalarda o`sadi». (1-sinf o`quvchisi), «tulki yovvoyi yirtqich hayvon, u o`rmonda yashaydi, jonivorlarni tutuib eb tirikchilik qiladi, mo`ynasi qimmat basho. Shuning uchun ovchilar uni ovlaydilar. Uning mo`ynasidan palto yoqalari, telpak, po`stin tikiladi» (3-sinf o`quvchisi).

Bolalarning mulohazalaridan ko`rinib turibdiki ularda muhim belgilar miqdori etarli darajada emas.

Ular o`simliklarni tariflaganda faqat daraxtlarning qaysi turiga mansubligi, qaerlarda o`sishi, inson va xayvonlar uchun qanchalik foydaliligini takidlaydilar. Hayvonlar to`g`risida mulohazalar yuritganlarida ham bir muncha kamchiliklarga yo`l qo`yadilar. Masalan: birlamchi xususiyatlarga etibor bermaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o`zlashtirsada oldingi daraslarda o`zlashtirilgan turli alomatlar, xususiyatlarni qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va xodisalar bilan ularning belgilari o`rtasida uzviy bog`lanish tarkib topilgan bo`ladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar tafakkurining o'sishi

Bolaning maktabga o'tishi bilim asoslarini muntazam ravishda egallab borishi tafakkurnig o'sishiga g'oyat katta tasir ko'rsatadi.

O'quvchilar ta'lim protsesida tabiat va ijtimoiy hayotdagi bir qanch yangi tushunchalar bilan, chunonchi, haybonot dunyosi, o'simliklar olami va jonsiz tabiatdagi xilma xil narsalar bilan, ularning turlari bilan tanishasilar. Shuningdek, ona tili va arifmetikadan muayyan darajada tushunchalar oladilar.

Ilmiy tushunchalarni o'qib o'zlashtirish protsesida boladagi analiz-sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash kabi murakkab fikr yuritiash operatsiyalari o'sib, takomillashib boradi.

Kichik yshdagi o'quvchilar tafakkuri boshlang'ich ta'limning dastlabki davrlarida, asosan, konkret, obrazli harakterga ega bo'lib, ular o'zlari bevosita ko'rayotga va eshitayogan, umuman, bevosita idrok qilayotgan narsalari haqida amaliy fikr yuritadilar. Shu sababli bu yoshdagi bolalari xali ko'rmagan, idrok qilmagan ko'p xodisa va voqealarning qanday sodir bo'lishini, ularning o'zaro

bog'lanishini fikran analiz-sintez qilib, ulardan to'g'ri xulosa chiqara olmaydilar. Shuningdek bu yoshdagi o'quvchilar o'zlarining qilayotga xatti - harakatlari va ishlari qanday oqibatlarga olib borishini va undan nimalar kelib chiqishini ham aniq tasavvur qila olmaydilar.

Kichik yoshdagi bolalar, ayniqsa ijtimoiy hayot hodisalarini mustaqil suratda kuzatib, ularning kerakli tomonlarini analiz va sintez qilish yo'li bilan o'zlarich ajratib olishni bilmaydilar. O'qituvchi bunga bolalarni o'rgatish uchun ular oldiga konkret savollar qo'yib borishi va bu savollarga javob topish uchun tegishli narsa va hodisalarni kuzatishga, ularning muhim tomonlarini ko'ra olishga, ular haqida tegishli xulosalar chiqarishga o'gatib borish lozim.

Bolamning fikrini biror narsaga yo'naltirish va uni o'sh narsa haqida o'ylashga erishish uchun uning fikrini konkret bir narsaga yo'naltirish, uning oldiga hal qilinish lozim bo'ga aniq bir masalani qo'yish va unga javob topish uchun ehtiyoj paydo qilish kerak. Bunda o'quvchilar fikrini muayyan tomonga yo'naltiruvchi aniq vazifalar belgilab berishning ahamiyati kattadir. Bola oldiga qo'yiladigan aniq savol va vazifalar uning miyasidagi bog'lanishlarni aktivlashtiradi va ularning yo'nalishiga tasir qiladi. Bola fikrini aktivlashtirishda hayratta qolish, taajublanish, shubha singari hislarning ahamiyati ham kattadir. Bolada tug'uladigan ajablanish tafakkur protseslarini aktivlashtiradi.

Bola fikrlash protsesida paydo bo'ladigan o'zidagi fikr "hukum" va tushunchalarni nutq vositasida ifoda qiladi. O'quvchi tomonidan o'rganib va o'zlashtirib olingan har bir yanig so'z undagi muayyan tushunchani muayan mazmunni ifodalaydi. Shuning uchun ham bola nutqining o'sishi, ayniqsa yangi so'zlarni egallashi va ma'nosini bilib olishi uning tafakkurining o'sishida tushunchalarning taraqqiy etishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning boshlang'inch ta'lim davrida I sinifdan boshlab ona tili, arifmetika, tabiat va ijtimoiy hayotga doir o'zlashtirib olishi lozim bo'gan tushunchalar doirasi o'quv programmalarida belgilab berilgan bo'lib, ular bu tushunchalarni o'qituvchining tushuntirib berish vositasida o'zlashtirib oladilar. Kichik yoshdagi o'quvchilarning tushuncha hosil qilishlarida o'ziga xos

xususiyatlari bor. O'qituvchilar boshlang'ich ta'lim protsesida o'quvchilarning o'quv programmalarida ko'rsatilgan har bir fandan muayyan tushunchalarga ega bo'lishlariga erishish uchun bola tafakkuriga xos bo'lan xususiyatlarni yaxshi bilishlari va ta'lim ishlarini bola xususiyatlariga moslab olib borishlari kerak. Bola maktabdan tegishlich bilimga ega bo'lish, keraklicha ko'nikma va malakalar hosil qilish natijasida ilmiy tushunchalar orttira boshlaydi. Bolada muayyan darajada ilmiy tushunchalar hosil qilishda oldin ular ga tegishlich bilim berish va undan mantiqiy fikr yurutish qobiliyatini taraqqiy ettirish lozim. Malumki, bola biror narsaga tayanmasdan fikr yurita olmaydi. U biror narsa haqida fikr yuritayotganda uni hayolan ikkinchi bir narsa bilan solishtirib, taqqoslab ko'radi. Ular o'rtida bo'lgan o'xshashlik yoki tafovutni aniqlab oladi. Masalan, bola ona tilidan izohli o'qishdan yirtqich hayvonlar to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish uchun o'rgatilayotga yirtqich hayvonni shu hayvonga yaqin turgan ba'zi uy hayvonlari bilan taqqoslab ular o'rtasidagi tashqi o'xshashlik yoki tafovutni aniqlab oladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar o'zlari bevosita idrok qiladigan va tasavvur etadigan konkret buyumlar va ularning ayrim qismlarini bir-biri bilan taqqoslay oladilar. Taqqoslaydigan buyumlarni ular qo'lga ushlab ko'rib uning shaklini, rangini, katta-kichikligini sinchiklab qarash orqali "amaliy ravishda solishtirib" ular o'rtasidagi bo'lgan farqini yoki o'xshashligini topa oladilar. Bu yoshdagi bolalar hali abstrak fikr olmaydilar. Muayyan buyum yoki hodisa haqida to'g'ri va aniq tushuncha hosil qilishi uchun real buyumni aks ettiruvchi yaqqol obrazi, surati, sxemasi yoki modelini bir-biriga taqqoslab ko'rib, ularning o'xshash yoki tafovutini aniqlab oladi. Masalan, bo'rini it bilan, qoplonni mushuk bilan solishtirib ular haqida to'g'ri tasavvur hosil qiladi.

Malumki, fikrlash protsesida tafakkur obyekti faqat taqqoslab qolinmasdan, uni analiz va sintez qilinadi.

Talim-tarbiya protsesida tabiat va jamiyat hodisalarni ifoda etadigan ayrim tushuncha va bilimlarni egallab olishda tafakkurning analitik-sintetik faoliyat g'oyat

katta ahamyatga ega. Bola muayyan tushunchalarni o'qib olishda asosan analitik-sintetik tafakkurni faoliyatiga asoslanadi.

Malumki, analiz muayyan buyum yoki hodisani tarkibiy qismlariga ajratib, fikr yuritishdan iborat bo'lsa sintez, aksincha, uning ayrim element yoki qismlarini bir butun qilib, birga qo'shib fikr yuritish protsesidir.

Bola analiz vositasida butun bir narsaning qismlariga bo'lgan munosabatini bilib oladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar hali murakkab fomada analiz va sintez qila olmaydilar. Ular qiladigan analiz va sintez juda oddiy shakilda boladi. Masalan, ular qirqma harflardan tuzulgan ayrim so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, bo'g'inlarni esa tovushlarga bo'ladi, suningdek, qirqma harflarni qo'shib ulardan butub bir so'z ham tuza oladilar. Mexnat darsida o'qituvchining ko'rsatmasi bilan oddiy stanokni qismlarga ajratish va ularni yig'ish singari amaliy ishlarni bemalol bajara oladilar.

Ta'lim protsesida bunfay ishlarnu muntazam o'tkazib borish bilan o'quvchining II sinfga chiqqanidayoq birmuncha murakkabroq shakildahi analiz va sintezlarni ham bajara oladigan bolishiga erishiladi. Bunda o'qituvchinig butub bir narsa qanday qismlardan elementkardan tashkil topishini va uni element yoki bo'lajlaridan qanday qilib bir butun narsaga aylanishi yaqqol ko'rgazmali ravishda tushuntirib, amaliy ravishda k'rsatib breshi va bolalarning o'zlariga bu ishni bajartirib ko'rish juda katta ahamyatga egadir.

Shunday qilib, tafakkurning boshqa faoliyatlar bilan birgalikda analitik-sintetik faoliyati ham bolaning hayot tajribalari, olgan bilim va tushunchalariga bog'liq holda takomillashib boradi.

III - IV sinflarga borib o'quvchilar og'zaki va yozma nutiqni durustgina egallaydilar. Til garmmatikasini o'rganadilar. Shuningdek metr o'lchovlari, vaqt o'lchovlari bilan tanishadilar. Bular o'quvchilarni buyumlar o'rtasidagi umumiy miqdor munosabatlari haqida fikr yuritishga, ularni fikran analiz va sintez qila bilishga o'rgatadi.

Shunday qilib, IV sinf o'quvchilarida boshlang'ich darajadagi abstrakt, fikriy analiz va sintez formalari o'sib boradi. Lekin bu davrda ham o'quvchilar quruq so'z,

abstrakt tushunchalarga tayanib emas, balki konkret tushuncha va obrazlarga tayanib analiz va sintez qila oladilar. Shuning uchun ham boshlang'ich talim davrida ko'rgazmali o'qitishni roli va tutgan o'rni g'oyat katta.

Boshlang'ich talim davrida tabiat va ijtimoiy hayot qonuniyatlarini aks ettiruvchi sodda va boshlang'ich ilmiy tushunchalarga ega bo'lish, masalan o'simlik va hayvonotlarning qanday ko'payishi, ularning yil fasillari va iqlimning o'zgarishi bilan bog'liq ravishda bir holatdan ikkinchi holatga o'tishlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish va hokazolar bola tafakkuridagi umumlashtirish, abstraksiyalash singari yuksak faoliyatlarning o'sishiga katta tasir ko'rsatadi.

Umumlashtirish faoliyati tufayli bola o'qib o'rganayotgan bir turkum narsalarning bir-biriga o'xshash bo'lgan umumiy belgilarini topish va ularni bitta tushuncha qilib bilish imkoniyatiga ega bo'ladi, masalan izohli o'qishda birinchi sinf bolalari daftar, qalam, ruchka, siyohdon, sumka singari buyumlarni o'quv asboblari ekanligini yoki sinf xonasidagi parta stol, stul, shkaf kabi buyumlarning mebel ekanligini umumlashtirish yordamida biladi.

Boladagi umumlashtirish faoliyatini o'stirishda unga bir turkumdagi narsalarning muhim belgisini topdirish va shunga qarab ularni bir turkumga kiritish ustida doim mashq qildirib borishning ahamiyati katta. Mohir o'qituvchilar I sinfdan boshlab o'quvchi fikrlashidagi umumlashtirish faoliyatini o'stirishda aktivlashtirish usullaridan muvofaqiyatli foydalanadilar. Masalan, respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Oqilxon Sharafiddinov I sinfdan o'quvchilarni uy hayvonlari bilan tanishtirayotganda sigir, qo'y, echki, it, mushuk singari hayvonlarning hayoti, ularning nima bilan ovqatlanish, odamga qanday foyda keltirish, ularning qo'lda boqilish, nihoyat manashuning uchun ular uy hayvonlari deb atalishini, tushuntirib, o'quvchilarda ko'rgazmali o'quv qurollari vositasi bilan yaqqol, ravshan tasavvur hosil qilgach, hosil qilingan muayyan tushunchalarga tayanib suhbat o'tkazish usuli bilan umumlashtirishga o'rgatadi.

O'qishni dastlabki kunlaridan boshlab bola tafakkurining umumlashtirish faoliyatini o'stirish ustida tegishlich ish olib borish tufayli bola 8-9 yoshga borib buyumlarning muhim belgilarini ancha to'g'ri topa oladigan va belgilariga qarab

ularni umumiy bir gruppaga kirita oladigan bo'lib qoladi. Bunda talim protsesida programma asosida sistemali ravishda orttirilgan bilinlar ilmiy tushunchalar va tasavvur doirasining o'sib borish katta rol o'ynaydi.

I - II sinf o'quvchilar muayyan gruppaga oid buyum va hodisalar haqida ancha malumotlarga ega bo'ladilar. Lekin, shunga qaramay ozlashtirib olgan konkret bir tushunchani muayyan tushunchalar gruppasiga kiritishda uning muhim belgisini nazarda tutushni unitib, ko'pinch tashqi tomondan ko'zga tahlalib turadigan alomatlariga qarab umumlashtirishga urinadilar. III - IV sinflarga borib narsalarning tashqi belgilarinigina emas, balki ular uchun xarakterli bo'lga tur va jins belgilarini ham to'g'ri ko'rsata oladiga bo'la oladilar.

III sinf o'quvchisi Nosir A. " paxta nima " degan savolga : "Paxta dalada o'sadi, kuzda oppoq bo'lib o'sadi undan kiyim - kechak va boshqa narsalar tayyorlaniladi ", deb javob bergan.

III sinf o'quvchisi Aziza K. esa yirtqich hayvonlardan bo'rini shunday tariflaydi: " Bo'ri - bu yovvoyi hayvon, qo'ylarni, buzoqlarni tishlab , bug'ib o'ldiradi, uni ovchilar otib o'ldiradi terisidan po'stin shapka tikadilar. Men bo'rini juda ham yomon ko'raman ".

IV sinf o'quvchisi Shavkat A. kedr daraxti haqida shunday deydi: "Kedr - igma bargli daraxt, taygada o'sadi, uning mayda yong'oqlari bo'ladi, undan yog' qiladilar."

Bunday faktlar shuni ko'rsatadiki, III va IV sinflarda bolalar har bir buyumni qanday turkumga kirishini undan nimalar qilinishi aytib bera oladilar, shu bilan birga o'hs abuyumga nisbatan o'zlarining ijobiy yoki salbiy munosabatlarini ham bildiradilar (masalan "Men bo'rini juda ham yomon ko'raman")

Kichik yoshdagi o'quvchilarda hukm va xulosa chiqarishning o'sishi

Bola ayrim buyum va hodisalarning sifat, xususiyatlarini hamda ular o'rtasida bo'lgan munosabatlarni hukm va xulosa chiqarish tarzida ifodalaydi. Masalan "olma mevali daraxt", "g'o'za suvsiz joyda o'smaydi" , "temir issiqdan kengayadi" va hokazolarni deyish bilan o'quvchi buyumning nima ekanligi uning xususiyati va boshqa narsalarga bo'lgan munosabati haqidagi o'z

tushunchalarini ifoda qiladi. Bola tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan o'z ilmiy tushunchalarini bir-biriga mantiqiy ravishda bog'lab, yangi bir fikr (hukm)ga keladi va ularni o'z - o'zlarida, gaplarda tasdiq yoki inkor qilish tarzida bayon qiladi. Bunda ayniqsa ona tilining grammatik tuzilishdan xabardor bo'lishi, og'zaki va yozma nutqni egallash g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Hukm va tafakkurning boshqa formalarining o'sishi bilan nutqining taraqqiy etishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bola tilning murakkab grammatik formalarini egallab borishi bilan birga unda murakkabroq hukm hukm formalari ham o'sib boradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar dastlab tevarak atrofda yuz berayotgan ayrim faktlarning tashqi alomatlariga qarab fikr (hukm) yuritadilar. Masalan "Qo'zichoq kichkina bo'ladi", "Qor sovuq bo'ladi", "Pavta yumshoq bo'ladi" va hokazolar.

Buyum va hodisalarning sifat va xususiyatlari hamda bir - birlariga bo'lgan munosabatlarni chuqurroq bilib borish bilan bola faqat yuz berga faktlar haqidagi hukmlarni tashqi belgilariga qarabgina emas, balki ichgi munosabatlariga qarabham boshqa shakillarda bayon etadigan bo'ladi. Bunda bolaning yuz beradigan fakt va hodisalarning nima sabablar bilan bog'liq ekanligini chuqurroq tushunishi katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilar II sinfga chiqqanlaridan keyin faqat tasdiq va inkor shalidagi hukmlarni emas balki extimolli va ayiruvchi hukm formalaridan ham foydalanadigan bo'ladilar. Yuz beradigan hodisalar birgina sabab bilan sodir bo'lmay boshqa sabablarga bog'liq xolda sodir bo'lish mumkin ekanligini ham ifoda qila oladigan bo'lib qoladilar. Maslan II sinfdan o'qituvchi yo'qlama qila turib darsga kelmagan ayrim o'quvchilarni nima sababdan darsga kelmaganligini so'raganda sinf navbatchisi shunday javob beradi:

- Bilmadim, Rano kasal bo'lib qolgandir yoki buvisinikiga borgan bo'lsa, kelaolmagandir.

Navbatchining bu javobidan shu narsa ko'rinadiki, u o'quvchining har xil sabablar bilan darsga kelaolmay qolishi mumkin ekanligini tushunadi va o'z tushunchasini ancha murakkab ayiruvchi hukm tarzida ifodalay oladi.

I va II sinf bolalari muhokama qilishda o'z fikrlarini ifoda etishda bevosita o'zlari o'rgangan va o'zlari uchun ayon bo'lgan faktlarga tayanadi.

Ta'lim protsessida o'qituvchi o'rta savollar tashlashi berilgan savollarga to'g'ri javoblar talab etish o'quvchilarni bu savollarga to'g'ri javoblar axtarishini o'rgatib borishi o'rta masalalar tashlab, o'quvchilarni o'sha masalalarning shartlarini topishga va qanday yo'llar bilan masalani hal etish mumkin ekanligi tahlil qilib ko'rishga, gipoteza tuzish singari fikrlash usularidan foytalanishga o'rgatib borishi g'oyat katta shamyatga egadir

III va IV sinflarda bolalar qat'iy ayiruvchi va ehtimolli hukmlardan ancha yaxshi foydalana oladigan bo'ladilar. Lekin boshlang'ich talim davrida bolalar asosan idrokka gina tayanib hukm qilish fan asoslarini chuqurroq o'zlashtirish va abstrakt tushunchalarni egallab borish bilan bog'liq holda o'sib boradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar o'zlaridagi fikrlarni bir - birlariga bog'lab, ulardan yana bir fikr xulosa chiqaradilar. Ular ta'lim Protsessida o'zlashtirib olgan bilimlariga, ona tili, arifmetika, tibbiyot fanlarini o'qish jarayonida hosil qilgan tushunchalariga muayyan darajada tayangan holda ana shunday hulosalar chiqaradilar. Lekin 7 - 8 yashar bolalar o'z muhokamalarida abstrakt umumiy qoidalarga saoslanib hulosa chiqara olmaydilar Ular asosan ayni paytda sezib idrok qilinayotgan buyum va hodisaga tayanib konkret obrazlar vositasi bilan amaliy ravishda muhokama yuritadilar. Masalan 7 yashar o'quvchi qalam sanoq cho'plari gugurt qutichasi singari buyumlarning haqida hulosa chiqaradi va ularning suvda nima uchun cho'kmasligi muhokama qilish yo'li bilan aytib bera oladi ammo yuz berayotgan ayrim hodissalarni umumiy qonuniyatlarga bog'lab o'z fikrlarini asoslab berishni bunda umumiy qoidalarni dalil qilib keltirishni bilmaydi. Masalan I sin fo'quvchisi Zohiddan "Qalamdon suvda cho'kadimi yoki cho'kmaydimi?" deb so'raganda u : "Qalamdon suvda cho'kmaydi. Iqbolning qalamdoni ariqqa tushib oqib ketayotganida biz uni ushlab olganmiz", deb javob bergan. Yigitchaning bunday javobi shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi o'quvchilar yog'ochdan yasalgan buyumlar suvda cho'kmasligini va qalamdon ham yog'ochdan yasalgan buyum ekanligini yaxshi bilsalar ham biror hodisa yuzasidan deduksiya

usuli bilan tegishli hulosa chiqarishda yani umumiy qoidani dadil qilib keltirish o'rniga juziy faktlarni aytish bilan kifoyalanadilar.

Talim protsesida ayrim juziy o'xshash faktlarni bolalarga ko'rsatib umumiy hulosalarni qanday qilib chiqarishni o'rgatib va mashq qildirib borish yo'li bilan ularda o'xshash faktlarni umumlashtirib induksiya usulida hulosa chiqarish qobiliyat o'stirib boriladi. Lekin kichik yoshdagi o'quvchilar sabab natija bog'lanishlarni aks ettiruvchi umumiy qoidalarni hali chiqarib bera olmaydi. Ulardagi bunday aqliy qobiliyat turli faktlarni o'rganish bilan birga o'xshash faktlarni umumlashtirish va ulardan yangi fikr hulosa chiqarish ustida aqliy mashq qildirish natijasida o'sadi.

Shuning uchun dars protsessida o'quvchilarga ayrim faktlarni o'rgatishi bilan masalan har xil jismlarni qizdirib ko'rsatish va ularning qizigandan kengayishini namoyish qilish bilan bir vaqtda ulardan tegishli hulosalarni chiqarishni ham o'rgatish zarur. Agar bunday ishlar munyazam ravishda o'tkazib turilmasa o'xshash faktlardan o'quvchilarni o'zlari hulosa chiqara olmaydilar. Bu borada olib borilayotga tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, III sinf o'quvchilari turli jismlarni qizdirib ko'rib ularni issiqda kengayishini uqib olganliklariga qaramasdan barcha jismlar qizdirishdan kengayadi degan hulosani mustaqil holatda chiqara olmaganlar.

Ular qattiq jismning idishdagi suv va havoning qizdirganda kengayishini to'g'ri tushuntirib bera olmasalar ham biroq ular o'rtasidagi mavjud umumiylikni ko'rsatib bera bilmaganlar. O'quvchilar IV sinfga chiqqanlarida ayrim hodisalar o'rtasidagisabab - natija bog'lanishlarni aytib bera oladigan o'xshash faktlardan umumiy qoidalarkeltirib chiqara oladigan bo'ladilar. Ammo ular o'zlari amlda qilib ko'rgan va tegishli tushuncha hamda tasavvur hosil qilgan narsalari yuzasidan bunday hulosa chiqara olsalarda hali o'z tajribalarida uchratmagan narsalarigi umumiy qoidani tatbiq qilishni bilmaydilar. Demak ulardagi induktsiyalar o'zlari bevosita ko'rgan ayrim faktlarga ya'ni o'z tajribalariga tayanadigan induktsiyalardan iborat bo'ladi. Shuning uchun kichik yoshdagi o'quvchilar ona tili arifmetika tibbiyot tarix singari fanlardan hosil qilgan juda ko'p faktlarni ilmiy

tushunchalarni o'zlaricha bir sistemaga solaolmaydilar. Bunday fakt va tushunchalarni ular bir - biriga bog'lamasdan ayrim - ayrim hollarda o'zlashtirib oladilar.

Bola tafakkurini o'stirishda ta'lim protsessida hosil qilinadigan nazariy bilimlarning ilmiy tushunchalar va faktlarnig turmushda kerak bo'lishni amaliy ravish da ko'rsati borish juda katt ahamyatga ega. O'quvchilar o'zlashtirib layotga bilimlarnig kundalik hayotda amaliy ravishda tadbiq qilishnin sinab ko'rish praktikada ishlatib ko'rish natijasida maktabda o'qib o'rganayotgan barcha fanlarni bilish zarur ekanligi binobarin ayrim fanlar ham chunonchi arifmetika ham turmushda juda kerak bo'ladigan fan ekanligini tushunib yetadiga bo'ladilar.

Ona tili va tibbiyot darislarida o'quvchilar ko'pincha induksiyadan foydaalniadilar. Ular ona tili tibbiyotdan ayrim fakt va hodisalar bilan tanishgach ularni tahlil qilish asosida umumiy bir qoidani aniqlashga o'rganadi. Bu esa boladagi induktiv fikrlash faoliyatini o'stiradi.

Shunday qilib boshlang'ich talim protsessida ayniqsa III va IV sinflarda o'qib o'rganayotgan fan asoslarini o'zlashtirish davomida boladan induktiv va deinduktiv hulosa chiqarish formalari o'sib boradi. Lekin ulardagi bunday induktiv va deinduktiv xulosa chiqarishlar dastlab muayyan shakilga ega bo'lgan yaqqol obrazlarga tayanib chiqariladigan induksiyalardan iborat bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda buyum hodisalarni umumlashtirib so'z bilan ifoda qilinadigan abstrakt tushunchalarga tayanib hulosalar chiqarish algebra geometriya va grammatika fanlarini o'qib o'rganish natijasida asta sekin o'sib boradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar abstrakt faktlarning o'sa boshlashi yangi bilimlarni egallash uchun katta imkoniyat beradi. Induktiv va deinduktiv hulosalar chiqarish boshlang'ich abstrakt fikr yuritish o'quvchining yangi olinayotgan bilimlarni ilgari hosil qilgan tushunchalar sistemasiga bog'lay olishiga yordam beradi. Bu esa bolada tushunish faoliyati o'sayotganini ko'rsatadi.

Tusunish yangi bilim hosil qilish protsessida ilgari hosil qilingan bilimlarni ishga sola bilish olinayotgan yangi bilimlarni ilgari hosil qilingan tushunchalar bilan bog'lay oishidir.

I.P.Pavlovning talimotiga binoan tushunish ilgari kishi tajribalarida hosil qilingan va mustahlamlangan shartli bog'lanishlarga (assotsiatsiyalarga) tayanadi. Assotsiatsiya deb ataladigan boshlanishlarning hosil bo'lishi. I.P.Pavlovning ko'rsatishicha atshqi odamdagi muayyan munosabatlarni bilish keyinchalik ulardan foydalanish esa tushunish demakdir. Agar bola o'zi olayotgan yangi bilimlarni ilgari hosil qilgan bog'lanishlar sistemasiga kirita olmasa bilimlarga tushunmaydi va ularni quruq yodlab olishga majbur bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarni bilimlar orttib hayot tajribalari ko'payib borgan sari ular miyasidagi bunday bog'lanishlar assotsiatsiyalar sistemasi kengaya boradi va keyin orttiriladigan bilimlarni tushunib olish uchun katta zamin hozirlaydi. Lekin eng muhimi dars protsessida o'quvchilar hosil qilayotgan har bir yangi tushunchani ulardagi mavjud tushunchalar bilan bog'lay olishga erishishdan iboratdir.

Kichik yoshdagi maktab bolalari dastlab tashqi olamdagi munosabatlarni bilishda juda qo'llaydilar. Shuning uchun ular o'zlari o'qib o'rganayotgan tabiat va jamiyat hodisalardagi kichik bog'lanishlarni hali to'g'ri tushunib yetmaydilar. Bunday bog'lanishlarni ular o'z tajribalari asosida tushunadilar. Masalan o'qituvchi I sinifda uy hayvonlari haqida tushuncha berib o'quvchilardan uy hayvonlari jumlasiga yana qanday hayvonlar kirishini so'raganda o'quvchilardan biri "It, mushuk, sichqon" deb javob bergan. O'qituvchining " Nima uchun sichqon uy hayvoniga bo'ladi " degan savoliga u: "Sichqon uyda yashaydi", deb javob bergan. Bu javob shuni ko'rsatadiki kichik yoshdagi o'quvchi narsa yoki hodisalarni bir-biri bilan bog'lashda ularni muhim belgilaridan emas balki tashqi bog'lanishlarni nazarda tutadi.

Huddi shunungdek I sinf o'quvchilari topishmoq jumboqlardagi konkret buyum yoki konkret muhitdan ajratib topishmoqda beriladigan shartlarni abstraktlashtirish yo'li bilan boshqa bir narsaga yoki boshqa bir sharoitga ko'chira olmaydilar. Shuning natijasida ular so'larning ko'chma ma'nosini topishga juda qiynaladilar. Ular III va IV sinflarga chiqqanlaridan keyin so'zlarning ko'shma ma'nosini abstraktlashtirish yo'li bilan tushuna oladigan bo'la oladilar. Boladagi

bunday qobiliyat ona tilidan misollar o'qish majoziy so'zlarni bilib olish ko'chma so'zlarni o'rganish natijasida hosil bo'ladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar hodisalar orasidagi sababli bog'lanishlarni tushunishda ham o'zlariga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ular yuz bergan voqeyliknin yuz beradigan faktlar nimalar oqibatida sodir bo'lishini tushunib yetmaydilar. Shu sababli keraksiz hatti-harakatlar qilayotganlarida bundan nimalar kelib chiqishini va bu ish nimalarga olib kelishini ular oldindan ko'ra olmaydilar.

Boladagi bunday fikrlash qobiliyati ya'ni natijaga qarab uni keltirib chiqargan sababini ochib beradiga mantiqiy fikrlash qobiliyati asta-sekin o'sib boradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar boshlang'ich ta'lim davrida bir qancha tabiat va jamiyat hodisalari bilan tanishadilar bir hodisa ikkinchi bir hodisa bilan bog'liq ekanligini biladilar chunki urug'ning ko'karishi tuproqning tarkibiga namgarchilikka yorug'likka va temperaturaga bog'liq ekanligini tushunadilar shuningdek tarixdan mamlakatimiz mehnatkashlarning ilgari qanday yashaganliklari nima sababdan og'ir ahvol da yashaganliklari va ularning qanday qilib bunday og'ir ahvoldan qutulganliklaridan xabardor bo'ladilar hozirgi kunda bizning demokratik jamiyatda yaxshi va halol mehnat qilgan kishilarning qanchalik hurmatga sazovor bo'layotganliklari singari ijtimoiy hayotimizda to'g'risidagi ancha tushunchalarni olib boradilar. Bular esa o'quvchilarda murakkab hodisalar ustida fikr yurita olisha bu hodisalarni sabab va natija bog'lanishlarini tushunish singari yuqoridagi darajada fikrlash formalarining o'sishiga imkoniyat beradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning nutqining o'sishi.

Bola nutqining o'sishida uning maktabda o'qishi ta'lim olishi g'oyat katta rol o'ynaydi.

Boshlang'ich ta'lim davrida kichik yoshdagi o'quvchilarning og'zaki va shuningdek yozma nutqini o'stirish ustida juda katta ishlar qilinmoqda. Bunda ayniqsa so'z boyligini oshirish fikrini aniq va to'g'ri ifoda qilish o'z nutqini grammatik qoidalarga muvofiq tuzish nutqdahi intonatsiya va urg'ularni aniq ajrata bilish singari nutqning eng muhim tomonlarini o'stirish ishlariga aloxida etibob

beriladi.

Nutq faoiyati boshmiya po'stining so'zlar vositasi bilan beriladigan nihoyatda nozik va murakkab signallarni analiz va sintez qila bilish qobiliyati bo'lib bu qobiliyat bolaning butun umr bo'yi hosil qilgan hayot tajribalari bilan mustahkam bog'liq holda tarkib topib o'sib boradi. Bola maktabgacha tarbiya yoshidayoq onatilining fonetikasini amliy ravishda egallab oladi va nutq tovushlaridagi nozik tovushlarni ham ajratadi va yetarli darajada o'z zapasiga ham ega bo'lib ko'pso'zlarni ma'nosiga ham yaxshi tushunadi. K.D.Ushinski bunday degan edi: " Bola o'z tilini o'zlashtira yotib faqat so'zlarning birikmalari va ularning o'zgarishlarigina o'zlashtirmay balki juda ko'p tushuncha predmetlarning nima ekanligini ko'p fikr tuyg'u badiiy obrazlarni tilning mantiq va filosofiyasini o'ganadi". Ammo shunga qaramay I sinfga kelgan ayrim bollarda haliham ba'zi bir tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaslik nutqda har xil intonatsiyalarni aniq ajrata bilmaslik va pauzalarning farqiga bora olmaslik singar hollar uchraydi. Ba'zi bollar nutqda esa duduqlanish til chuchukligi va boshqa shunga o'xshash nuqsonlar bo'ladi (bolalar nutqidagi bunday nuqsonlarni o'ituvchi ta'limni gbiribchi kunlaridan boshlab kollektiv va individual suhbaltlar o'tkazish yo'li bilan aniqlab chiqishi hamda shunday nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni ularning ota-onlari bilan kelishib davolatish uchun vrachga yuborishi lozim). Kichik yoshdagi ayrim o'quvchilar nutqlarida ba'zi tovushlar tallafuzidagi o'xshashlik yoki tafovutlarni aniq ajrata olmaydilar. Bunga harxil narsalar sabab bo'lishi mumkin. Chunonchi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga yaxshi rioya qilmaslik ovoz organlarining yetarli darajada o'smagan bo'lishi va hokazolar. Bunday hollarda maktabda avvalo bolaga saboq berish to'g'ri o'qish va yozishni o'rgatish davrida tovushlarning talaffuzidagi nozik tafovutlarni aniq talaffuz ettirishga alohida etibor berish va bular ustida yetarli darajada mashq qildirish kerak bo'ladi.

To'g'ri o'qish va yozishni egallash tovush organlarini yaxshi taraqqiy etgan bo'liahini fonemalarni aniq ajratib to'g'ri idrok qilishni talab etadi. Agar bolada nutq tovushlarini tez ajratib olish ya'ni fonematik sezgirlik qobiliyat yetarli darajada o'smagan bo'lsa u so'zdagi bo'g'in va tovushlarni analiz qila va tarkibiy

elementlariga to'g'ri ajrata olmaydi. Bunday bola nariroq borib yozishda orfografik hatolarga ko'proq yo'l qo'yadi va bir biriga yaqin bo'gan tovushlarni talaffuzidagi nozik tafovutlarni ajratishga juda qiynaladi. Bunday hol faqat savod o'rganish davridagina emas balki undan keyingi davrda ham davom etishi mumkin. Bunday bola tivushlarni qayerda qisqaroq qayerda cho'ziqroq aytilishini ajrata olmay qiynallib yuradi. Bundan tashqari I sinfda ba'zan qulog'i og'ir bolalar ham uchraydi.

Bunday bolalar og'zaki va yozma nutqdagi ko'p tovushlarni deyarli yaxshi ajratib ola olmaydilar. Shuning uchun ular tildagi bir qancha tovush va so'zlarni aniq to'g'ri ayt olmaydilar. Bunday o'quvchilarni oldingi partalarga o'tqazish ularga alohida etibor berish va tovushlarni qanchalik to'g'ri idrok qilayotgaliklarini kuzatib tekshirib borish va shu yo'l bilan ular nutqining to'g'ri o'sishiga erishish kerak.

Kichik yoshdagi o'quvchilar nutqining o'sishiga yozma nutqning egallanishi katta ahamiyatga egadir. Bola yozma nutqni egallash vositasida til gramatik qoidalarini o'rganadi va shu bilan birga kitob, gazeta, jurnal kabi bilim manbalaridan ham foydalana oladi. Bunda manbalar esa tabiiy ravishda bola uchun bilim egallashning yangi vosita va yo'llarini ochib beradi va bolaaqliy faoliyatining yaxshi taraqqiy etishi uchun zo'r imkoniyat yaratadi.

A.V. Zaparajetsning fikricha, bola 7 yoshlarga borib 3000 dan to 4000 ga qadar so'zni bilib oladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarga talim protsessida yangi tushunchalar berib borilishi esa mukammallashib boradi. O'qish protsessida bola ona-tili, tabiyat, arifmetika, tarix singari fanlarni o'qib, bir qancha yangi so'zlar, iboralar, yangi terminlar bilan tanishadi, ularning manosini xam bilib, tegishli tushunchalar olib, o'zining tassavur doirasini kengaytirib boradi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, kichik yoshdagi o'quvchi xar bir so'zni hali o'z o'rnida ishlata olmaydi. Bola til gramatikasini yaxshi o'rganish, so'zlarning bir-biriga qo'shilish va o'zgarish qoidalarini chuqurroq o'zlashtirish protsessida xar qaysi so'zni turli o'rinda qanday ishlatish yo'llarini ham o'rgana borasi.

Kichik yoshdagi o'quvshilar so'zlarning manosiga qarab o'z o'rnida

ishlatishni yaxshi bilmaganliklaridan o`z nutqlarida "anaqa", "xaligi", "undan keyin", "shundoq qilib" singari keraksiz so`zlarni ko`plab ishlatadilar. O`quvchilarda o`z nutqlariga nisbatan ongli munosabat tarbiyalash maqsadida ularning diqqatini nutqda uchraydigan bunday kamchiliklarga jalb etish va ulardan so`zlarni manosiga qarab o`z o`rnida ishlatishni talab etish lozim.

Dars protsessida vadarsda tashqi vaqtlarda bola nutqini muntazam suratda nazorat qilib beragigan og`zaki javoblarni kuzatib borish va uni shoshmasdan gapirishga gapni ortiqcha cho`zmay n o`z fikrini qisqa aniq soi`zlab berishga o`rgatish zarur. Ayni vaqta bolaning yozma nutqini muntazam ravishda analiz qilib turish unung o`z fikrini yozma ravishda qanday bayon qilishini tekshirib borish kerak. Bunday ishlar bolaga o`z fikrini aniq ifoda qilish o`ylab yozish imkonini beradi.

O`quvchilarda nut vositasida kishilar bilan to`g`ri va odobli muomala qilish fazilati tarbiyalanmog`i masalan ularda bir-birlari bilan gaplashganda baqirmasdan muloyimlik bilan so`zlashish, bir-birlarining so`zlarini bo`lmasdan quloq solish va navbat bilan so`zlashish ga odatlanish nutq madaniyatini egallash singari xislatlar tarbiyalanmog`i lozim.

Kichik yoshdagi o`quvchilarda xayolning o`sishi

Kichik yoshdagi o`quvshilar xayolida muxim o`zgarishlar yuz beradi. Bu davrga kelib bolaning xayot tajribalari ancha ortib tasavvur doirsi kengayib, fkirlash protsesslari ham ansha takomillashib qoladi. Bu esa bolaga maktabda adabitot, tarix geografiya, va tabiyat singari asoslarini o`zgartirib olish, o`qituvshining darsda beradigan tushuncha va tafsilotlariga muvofiq obrazlarini o`z ongida gavdalantirib yaqqol tasavvur qila olish imkonini beradi

Xayol bolaning o`qish faoliyatida muxim ro`l o`ynashi bilan birga ayni shu faoliyat protsessida o`zgarib takomillashib boradi.

Malumki xayol kishida mavjud extiyojlarga va qiziqishlarga bog`liq ravishda vujudga keladi. Maktab yoshidagi bolalarda talim davrida tevarak-atrofdagi narsalarni turli-tuman xodisalarni bilib olishga bo`lgan extiyoj yana xam ortadi. Ularda turli narsalarga qiziqish ularni qo`lga kiritish uchun intilish o`zida yo`q

narsalarni yasab olish orzu qilish borgan sari ortib boradi. Bular esa tabiiy ravishda boladagi xayol faoliyatlarini kuchaytiradi.

II – BOB. O'QITUVCHINING O'QUVCHILAR FAOLIYATINI SHAKLLANISHIDAGI ROLI

2.1. O'quvchi shaxsining tarkib topishida o`quv faoliyatining roli.

Bola sezish, idrok qilish va kuzatish protsesslarida voqelikni bevosita anglab (bilib) olar ekan, bilimlarni o`zlashtira boradi, tajriba hosil qiladi. Dastlab bo`linmagan yaxlit idrok tobora bo`lina borib, analiz (tahlil) qiladigan bo`lib qoladi, demak, ancha aniq idrokka aylanadi.

O`qituvchi darsda o`quvchilarning kuzatishlarini muntazam suratda, ixtiyoriy va izchillik bilan uyushtiradi hamda o`quvchini tegishli materialni tahlil etish va umumlashtirib borishga o`rgatadi. Shu tariqa ta'lim asosida o`quvchi bolada shaxsning xislati bo`lgan kuzatuvchanlik tarkib topadi.

Kichik yoshdagi o`quvchi bolada ixtiyoriy esda qoldirish ham kuchaya baradi. Boshlang`ich maktab o`quvchisi esda qoldirish usullarini egallaydi—ko`p marta takrorlab quruq esda qoldirishdan aktiv esda qoldirish usullariga (o`qituvchi rahbarligida) o`tadi.

Kichik yoshdagi o`quvchi bola o`z oldiga qanday esda qoldirish yoki hikoya qilib berish uchun esda qoldirish, termalab (tanlab) esda qoldirish yoki hamma materialni esda qoldirish kerakligi vazifasini qo`ya oladi. Ixtiyoriy va tushinib esda qoldirish o`quvchidan irodaviy zo`r berishni talab qiladi, bu talab uning xotirasini aktivlashtiradi va uning shaxsning umumiy o`shishiga yordam beradi.

Tafakkur hissiy-aniq buyumlar asosida fikr yuritishdan umumiy tarzda va mavhum (abstrakt) fikrlash sari rivojlanib boradi, bu tafakkur nutqning shakllanib borishi bilan chambarchas bog`langan.

O`quv faoliyati tafakkurni aktivlashtirib va murakkablashtira borib, tafakkur protsessini rivojlantiribgina qolmayyu balki tafakkurning yangi formalarini: tushunchalar, hukm va xulosalarni ham rivojlantiradi. Bola fikrlashga o`rganadi.

Kichik yoshdagi o`quvchi bolaning psixik faoliyati uning o`quv ishi bilan chambarchas bog`lanib takomillasha boradi: o`quvchining o`quv faoliyatidagi yutuqlari uning psixik holati bilan belgilanadi, o`quv faoliyati esa o`z navbatida o`quvchi bola psixikasiga, xususan uning aqliy faoliyatiga yangi talablarni qo`yadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada maktabga kirishda rivoj topgan hamma narsa: nutqning eshitish, ixtiyoriy artikulyatsiya, ko`z idrokining bo`linganligi, bolalarning umumiy tasavvurlari va boshlang`ich (elementar) tushunchalari, zo`r berish va diqqatni to`plash qobiliyati o`quv faoliyati protsessida yanada ko`proq rivojlanib, takomillashib borishi kerak.

O`quv birinchi sinf bolasidan aqliy faoliyatining ko`nikib ketilgan usullarini o`zgartirishni talab etadi, bu talab o`quvchiga qiyinchilik qiladi, chunki ilgari hosil etilgan dinamik stereotiplarning o`zgarishi ro`y beradi.

Bolaning ta`limga (o`quvga) idrokliligi uning maktabda o`qishga tayyorgarligini belgilaydigan o`shishining eng muhim ko`rsatkichidir. O`quv faoliyatidagi dastlabki qadam o`qituvchining bola nimalarni bilishini va nimalarni uddalay olishini aniqlashdan, uning hamma bilim va malakalarini o`qishdagi birinchi qadam uchun zarur bo`lgan sistemaga solishdan boshlanadi.

Keyingi o`quv ishida o`qituvchi o`quvchining bilimi va malakalari ko`lamini va uning bilimlarini o`zlashtirishning navbatdagi, ancha yuqori bosqichiga ko`chishga tayyorgarligini hisobga oladi, u bundan oldingi ta`lim bilan aloqa o`rnatadi. O`qituvchi mana shu asosda o`quvchilarni bundan buyon o`qitish usullari va yo`llarini planlashtiradi.

Kichik yoshdagi o`quvchi bolaning yangi materialni o`zlashtirishida uning aqliy ish- harakatlari taraqqiysida o`zaro mahkam bog`langan bir necha bosqichni belgilab qo`yish mumkin.

Birinchi bosqich (tanishish bosqichi) bola o`zining nimani o`rganishini bilib oladi. So`ngra ikkinchi bosqich keladi- aqliy ishni amaliy bajarish. Uchinchi bosqichda aqliy ish nutqda ifodalanadi, to`rtinchi bosqichda- aqliy ish endi dilda (ichki nutq orqali) bajariladi. Beshinchi bosqichda aqliy ish qat'iy qaror topadi, ortiqcha material chiqirib tashlanadi.

Aqliy ish-harakatlarni egallash protsessida o`quvchi bola narsalar o`rtasidagi o`zaro bog`lanish va munosabatlarni o`zlashtiradi, unda faqat ayrim tushunchalargina emas, balki tushunchalar sistemasi, juziy va umumiy tushunchalarning o`zaro munosabati ham tarkib topadi. Tushunchalar ancha aniq

va muntazam tushunchalarga aylanadi, tushunchalar klassifikatsiya qilina boradi. O`quvchi bola taqqoslash usullarini asta-sekin egallab, narsalar va voqelik hodisalaridagi o`xshash va bir-biridan farq qiladigan jihatlarni ajrata boshlaydi, ulardagi asosiy va muhim jihatlarni topa bilishga o`rganadi. Maktab bolasi solishtirib ko`rishga, mulohaza (muhokama) qilishga, isbot qilishga o`rganadi va shu asosda u tafakkurning mantiqiy formalarini asta-sekin egallab boshlaydi.

Shu tariqa aqliy ish-harakatning tarkib topish jarayonida o`quvchida o`z fikrlash ishining umumiy uslubi tarkib topa boradi.

Bilimni o`zlashtirish protsessi o`qituv ishida katta o`rin tutadi. O`zlashtirish – ongli, muayyan maqsadga qaratilgan, aktiv psixik protsessdir. O`quvchi olgan bilimni amalda tatbiq qila bilganidagina bilim puxta o`zlashtirilgan hisoblanadi.

O`quv materialini analizetish, uni sintez qilish, eski bilim bilan bog`lash, bilimni umumiyashtirish, uni amalda tatbiq etish-bularning hammasi o`quvchining aktiv fikrlash ishining namoyon bo`lishidir.

O`quv materiali etarli darajada analiz qilinmasa, o`quvchi bolda faqat uning ayrim tomonlarini yuzaki o`zlashtiradi, o`quv materialidagi muhim qismni esa o`zlashtirmaydi.

O`quv materialni etarli darajada sintez qilinmasa, o`quvchilar faqat tasodifiy detallarni o`zlashtirishadi, o`quv materiali eski material bilan bog`lanmaydi, demak, bu materialni amaliy faoliyatga qo`shib bo`lmaydi.

Materialni o`zlashtirish uchun albatta uni analiz qila bilish, materialning eng asosiy, muhim qismini ajrata bilish, o`xshash va bir-biridan farq qiladigan jihatlarni topa bilish kerak bo`ladi. Boshlang`ich maktab o`quvchilari aktiv tafakkurni bazi vaqtda xotira protsesslari bilan almashtiriladi, o`z oldiga fikr qilish (muhokama yurgizish) emas, balki esda qoldirish vazifasini qo`yishadi. Xuddi mana shu vazifa materialni o`ylab manosini tushunmasdan deyarli so`zma-so`z esda qoldirishga olib boradi, manosini tushunmay yodlashga olib boradi. Boshlang`ich maktab o`quvchisi o`quvchilarning o`quv materialini bunday so`zma-so`z yodlab olishga mayl qilishlariga qarshi keskin kurashmog`i kerak. Ta`lim o`zlashtirish protsessi o`quvchining o`zi o`quv materialini

o`zlashtirish protsessida aktiv va ongli suratda ishtirok etishini, qiyinchiliklarni engib o`tishini, irodaviy zo`r berishini, o`qishga ijobiy qarashini (munosabatda bo`lishini) talab qiladi. O`quv materiallari bilan bevosita, ko`rgazmali tarzda tanishib borish-bunday aktivlikni taminlaydi, bu esa boshlang`ich maktab o`quvchilari uchun katta ahamiyatga egadir.

Bilimlarni egallash jarayonida o`quvchi bola tarbiyalanib ham boradi. O`quvchi nimani o`zlashtirayotganiga befarq qaramaydi, bilimlar sistemasi o`quvchida ishonch (etiqod) tarbiyalaydi, uning dunyoqarash negizini belgilaydi, yani, unda shaxsga xos muayyan xususiyatlarni: maqsad ko`zlash, qiziqish-havaslar, mayllar, yangi bilimlarga ehtiyoj singari xususiyatlarni tarbiyalaydi.

Bilimlarni o`zlashtirish natijasida bola kamol topadi, uning ongi o`sa boradi, tafakkurning keyingi, yuqori bosqichiga o`tish uchun sharoit tug`iladi.

Maktabda beriladigan bilimlarni o`zlashtirib borish tufayli o`quvchilarda o`zlarini mehnatga, ishga tayyorlaydigan shaxsga xos bir qancha xususiyatlar asta-sekin tarkib topadi.

Maktabda ta`limning dastlabki yillari mehnatkash odamga xos bo`lgan muhim sifatlarni hosil qilishda katta ahamiyatga egadir. Xuddi shu paytlardan boshlab, o`quvchilar qanday o`qish kerakligi, darslarni qanday tayyorlash, kitoblarni qanday o`qish va kuzatishlarni qanday olib borish kerakligi, qanday ishlash kerakligi to`g`risida bilim olishadi. Boshlang`ich sinflarda o`quv faoliyati jarayonida bolalarning o`qishga, mehnatga munosabati aniqlanadi va rivojlana boradi, fuqarolik burchi hissi tarkib topadi, ertangi kun (kelajak) fuqarosi manaviy qiyofasining negizi vujudga keladi.

O`qituvchining asosiy vazifasi o`quvchilarga bilim berish bilan bir vaqtda ularga ish yo`llari va usullarini o`rgatish, ularni tarbiyalab borishdan iborat.

Ta`lim hamisha tarbiya bilan, bola shaxsini voyaga etkazish yagona protsessi bilan qo`shilib ketishi kerak. Ta`lim, tarbiya va tarbiyalanayotgan shaxsning kamol topishi o`rtasida birlik bo`lmay turib ta`lim (o`qitish) protsessini tasavvur qilib bo`lmaydi. Bu jarayonda ta`lim va tarbiya etakchi rol o`ynaydi, chunki ta`lim va tarbiya kamolga etishni bellgilab beradi. Kichik yoshdagi o`quvchi bolaning

etakchi faoliyati bo`lgan o`quv faoliyati uning shaxsini tarkib toptirishda asosiy yo`nalishni belgilaydi. Bolaning o`qituvchi va jamoa bilan yaxshi munosabatlari bo`lajak fuqaro shaxsi xususiyatlarining mukammal tarkib topishiga va tobora har tomonlama takomillashib borishiga o`ng`aylik beradi.

2.2. O'quvchi shaxsining tarkib topishida o'yin faoliyatining roli.

Maktabga kirib, o'zi uchun yangi bo'lgan o'quv faoliyatiga kirishgan bola o'ynashni ham to'xtatmaydi.

O'qish va tevarak-atrofdagi muhim haqidagi yangi bilimlar tasiri bilan, organizmning tobora jismoniy chiniqishi bilan o'quvchi bola o'yiniga ko'pgina yangi va maroqli paytlar kiritila boradi. O'yin avvalgidek bolada shaxsga xos ijobiy sifatlarni tarbiyalashga katta tasir ko'rsatadi, kollektiv tashkil etishga, uni japslashtirishga yordam beradi, do'stlik va o'rtoqlik xislatlarini tarbiyalaydi.

O'qituvchi o'yinning shu yoshdagi bola uchun tarbiyaviy va marifay ahamiyatini hisobga olishi hamda o'yinlar xarakteriga va yo'nalishiga tasir (bevosita yoki bivosita (vositali) tasir) ko'rsatishi zarur. O'qituvchi o'quvchilarni o'rganar ekan, bolani o'yinda ham kuzatib borishi kerak. Bola o'ynar ekan, unda o'quv faoliyati jarayonida ayon bo'lmaydigan shaxsiy xususiyatlar namoyon bo'ladi.

O'yinda bolaning individual xususiyatlarini o'rganish aqituvchining bolaga munosabatini o'zgartishiga-unda o'yin jarayonida yaqqol namoyon bo'lgan muhim sifatlarni o'stirib borishiga imkon beradi. Ayni mahalda o'qituvchi bolaning salbiy sifatlarini yaxshiroq bilib oladi, bu esa o'qituvchining o'quv faoliyatida unga xos shunday ko'rinishlarni nazarda tutib ish ko'rishga imkon beradi.

Revolutsiyadan oldingi zamondayoq taraqqiyparvar rus pedagoglari o'yinning katta tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib o'tgan edilar.

K.D.Ushinskiy bolani ijodiy mehnatga, faoliyatga, hayotga tayyorlaydigan o'yinning katta tarbiyaviy ahamiyatini bir necha bor takidlab o'tgan edi. U, o'yinda bola faqat huzur qilishgagina emas, balki jiddiy mashg'ulotlarga ham intiladi, o'yin-bolaning amaliy faoliyat doirasi bo'lib, bu-uning faqat jismoniy ehtiyojlarinigina emas, balki manaviy ehtiyojlarini ham qondiradi deb o'qtirgan edi.

O'yin-hayotning aks ettishidir. O'yinni real voqelikdan ajratilgan holda tekshirish (o'rganish) yo'lidagi har qanday urinishlarni asosli deb bo'lmaydi. O'yin bolani hayotdan, voqelikdan chetga tortmaydi, aksincha, o'yin hayotga ham

tayorgarlik, bolalarni xursand qiladigan, ularda tevarak atrofdagi hamma narsaga muhabbat va qiziqish tug`diradigan hayotning o`zginasidir.

O`yin- tarbiya vositasi. N.K.Krupskaya ko`rsatib o`tganidek, o`yin bolalarni uyushqoqlikka (hamjihatlikka) o`rgatadi, o`yin jarayonida etakchilar (boshchilar), tashkilotchilar, boshqalarni ergashtirib bora oladigan odamlar tarbiyalanadi. O`yin bolaning har tomonlama o`sib borishiga yordam beradi: bolaning jismoniy kuchi osha boradi, qo`li kuchlana boradi, tanasi ixchammlasha boradi, ko`zlari tobora o`tkirlashadi, zehni o`tkirlik, hozirjavoblik (topqirlik), tashabbuskorlik, o`zini tuta bilishlik, sharoitni (vaziyatni) chamalab ko`ra bilishlik va boshqa shu singari xislatlar taraqqiy qiladi.

O`yinda jamoa vujudga keladi. O`yindagi umumiy kechinmalar bolalarni birlashtiradi. O`yinda o`rtoqlik hissi, bir- birini qo`llash, engib chiqish uchun aktiv kurashga intilish tarbiyalanadi.

«Jamoa o`yinlarida maqsadga zo`r berib (astoydil) intila oladigan tashkilotchi bolalar, etakchi- bolalar etishadi».

N.K.Krupskaya va A.S.Makarenko bayon qilgan fikrlarida o`yinlarning tarbiya sifatidagi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish sifatidagi, shaxsning axloqiy, jismoniy va psixik (ruhiy) xislatlarini tarkib toptirish maktabi sifatidagi ahamiyati takidlab o`tiladi.

A.S.Makarenko, bundan tashqari, o`yin bolaga yaxshi istirohat (orom) elementi sifatida quvonch, xursandlik bag`ishlashi kerak, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham A.S.Makarenko o`yinga yumor, kulgi kiritishga intilar edi, basharti o`yinda yumor, kulgi bo`lmasa, u: «oqilona, lekin zerikarli va yomon» - der edi.

Pedagoglar va psixologlar o`yinga ijodiy faoliyat deb qaraydilar, chunki o`yin jarayonida bola atrofdagi voqelikni aks ettradi. Bola aktiv o`yin formasida (shaklida) hayot hodisalarini, odamlarning ijtimoiy munosabatlarini, mehnat protsesslarini chuqurroq bilib oladi.

Ijtimoiy munosabatlar o`zgarishi bilan bolalar o`yinlarining karakteri ham, mazmuni ham o`zgaradi. Demak, o`yin o`zligicha o`zgarmay, balki jamoa hayotining o`zgarishiga qarab tabiiy suratda o`zgaradi. Bazan o`yinlar shakl

jihatidan avvalgidek qolaverishi mumkin, ammo ularning mazmuni o`zgaradi, o`yinda qatnashuvchi bolalar o`rtasida yangi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradigan yangi munosabatlar paydo bo`ladi.

O`yinda bolaga yaqin bo`lgan hayot, uning atrofidagi voqelik aks etgandagina u bolaning o`yini bo`lib qoladi. Bolalar faqat o`zlarini to`lqinlantiradigan (hayajonlantiradigan) o`yinlarni, katta yoshli kishilar boshdan kechiradigan narsalarni o`yinlarda boshdan kechirishga imkon beradigan, o`zlarini katta yoshli kishilar hayotiga yaqinlashtiradigan o`yinlarnigina o`ynaydilar.

Bolalarimizda ijobiy o`yinlar bilan bir qatorda hayotning, maishiy turmush va odamlar xulq-atvorining salbiy tomonlarini aks ettiradigan o`yinlar ham paydo bo`lishi ham mumkin. Shunday o`yinlar natijasida bolalar shaxsiga xos salbiy xislatlar o`sa boradi. Qimor o`ynash, pul tikib o`ynash ham salbiy o`yinlar qatoriga kiradi.

Odatda salbiy o`yinlar bolaning tevarak-atrofdagi muhitning tegishli tasiri sababli paydo bo`ladi.

Bazan oilada o`tmish sarqitlarining sodir bo`lish hodisalari hanuzgacha uchramoqda. Bola ana shu yomon narasani ko`radi va goho uni o`z o`yinida aks ettiradi.

Maktab bolalarida o`yinning mazmuni va yo`nalishi o`zgara boradi. Bolalar o`yinlarining syujetlari maishiy hayot o`yinlaridan ishlab chiqarishga xos syujetli o`yinlarga qarab va nihoyat, ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettiradigan syujetlarga qarab rivojlana boradi. Shu tariqa, bolalar o`yinlarining rivojlanib boradigan syujetlari bolaning tushuncha va bilimlar doirasini kengaytiradi, uning turmush tajribasini orttiradi.

Birinchi sinf bolalari ko`pincha maktab-maktab o`ynaydilar: ular qo`g`irchoqlarni o`qitishadi, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o`qitishadi, hayvonlarni o`qitishadi, bir-birlariga ta`lim berishadi. O`yinga maktab hayotidan epizodlar: vrachning kasallarni qabul qilishi, meditsina ko`rigi (sog`liqni tekshirish), rentgen va shu kabilar kiritiladi. Maktabda o`qish protsessida vujudga kelgan yangi munosabatlar, yangi faoliyat, -bularning hammasi o`yinda aks etadi.

1 sinf bolalarining o`yinlarida maktab tematikasiga ko`p o`rin, 2 sinf bolalarining o`yinlarida ozroq o`rin beriladi, 2 sinf o`quvchilarida esa maktab tematikasidagi o`yinlar borgan sari kamaya boradi. Bolalarning bilishga qiziqishlari o`sha borishi tufayli ular boshqa, yangi o`yinlarga ko`chadilar.

O`quvchi bolalar qancha ulg`ayishsa, ijodiy o`yinning bilim orttirish xarakteri ular uchun shuncha ko`proq ahamiyatga ega bo`ladi, o`yinda yangi narsani bilish, anglab olish, bilib olingan narsani takomillashtirish maqsadi qo`yiladi. Bularning hammasi makta va o`qish ta'siri ostida yuz beradi.

O`quvchi bolalar o`yinlarining syujetlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarnikiga qaraganda ancha mukammal syujetlardir; kichik yoshdagi o`quvchi bolalar asosiy diqqatini odamlarning ish-harakatlariga eias, balki ularning munosabatlariga, hislari va kechinmalariga qaratishadi, ular ko`rilgan narsani takrorlash va esga keltirishning muayyan (aniq) doiralari bilangina cheklanib qolishmay, o`yinni o`qib chiqilgan kitoblardan, katta yoshli odamlarning gaplaridan olingan materiallar bilan to`ldirib borishadi.

1-2 sinflarning o`quvchilari qo`g`irchoq va o`yinchoqlar bilan o`ynashni yaxshi ko`rishadi: 3-sinfda bolalar shunga o`xshash o`yinlarga endi kamroq qiziqishadi. Faqat hatga yaqinlashgan va rolni ijro etuvchining turmush haqiqati sharoitida yaqinlashib borishiga imkon beradigan murakkab syujetli o`yinlarogina 3-4 sinf o`quvchilarini qanoatlantirishi mumkin.

O`yinda kollektiv tobora ko`proq ahamiyatga ega bo`la boshlaydi. 1-2 sinflarning o`quvchi bolalarida kollektiv hali beqaror bo`ladi, o`yin kollektivlari ham uncha mustahkam bo`lmaydi. Uchinchi sinf o`quvchilarida endi mustahkam o`yin kollektivlari tashkil topadiva xiyla barqaror o`rtoqlik munosabatlari paydo bo`ladi. Bola kollektivda o`zini tuta bilishga o`rganganidagina, u o`rtoqlari oldida javobgarlikni sezganida, o`zini tuta bilganida va xulq-atvorini qoidalarga bo`ysundira bilganidagina gruppalarga bo`linib o`yinlarni kirgizish, qoidalarga muvofiq kurashish mumkin bo`ladi.

Yakka (individual) o`yinlar, ikkovlashib va uchovlashib o`ynaladigan o`yinlar-kichik yoshdagi o`quvchi bolalarda dam-badam uchraydigan hodisadir.

Bolalar shunday kichik gruppalarni katta kallektivdan afzal ko`rishadi. 3-sinf o`quvchilarida endi kollektiv o`yinning o`sa borishi va katta o`yin kollektiviga intilish aniq ko`rinadi.

Bu yoshdagi bolalarda kollektiv bilan hisoblasha bilishlik, kollektivga bo`ysuna bilishlik tarbiyalana boradi.

Bolalar tobora ko`proq birgalashib o`ynaydigan bo`ladilar. Tartibili ravishda jamoa bo`lib o`ynaydigan o`yin esa o`z navbatida mustahkam sinf jamoasini vujudga keltirishga va jamoa o`yinni rivojlantirishga yordam qiladi. O`yin protsessidagi umumiy kechinmalar va his- tuyg`ular ham kollektivning tarkib topishiga hamda jamoa o`yinlarining rivojlanishiga yordam beradi.

O`n yashar bolalar hatto o`yin murakkab bo`lib, bir qancha ayrim syujetlarni o`z ichiga olgan bo`lsada, syujetli o`yin davomida uning oxirgi maqsadini esda tutadilar. Bu yoshdagi bola o`yinning ayrim epizodlarini bir- biri bilan bog`lab yagona o`yinga aylantira oladi.

Syujetli o`yinlar bolalar kollektivining tashkil topishiga ancha tasir qiladi. Chunonchi, kamolotchilar lagerida o`yinlar o`tkazishdan oldin bir sinfda hali kollektiv yo`q edi, o`yinlar natijasida ahil jamoa tashkil topdi.

Kollektiv o`yinlar bolalarning o`zaro o`rtoqlik rolini anglab olishlariga ham imkon berdi. Lagerda ko`pgina bolalar o`yin vaqtida do`stlashdilar, ulardan bazilari esa lagerdan qaytib kelgandan keyin ham do`stlik munosabatlarini saqlab qolishdi.

O`yin jarayonida bazi bir bolalarning salbiy xislatlari: uyatchanlik (tortinchoqlik), injiqlik, jizzakilik, kekkayishlik bartaraf qilinadi. O`yin bolalarning o`zlarini jamoaning to`la huquqli azosi ekanligini his etishlariga yordam berdi. Bolalarning birgalikdagi shunday sharoit yaratilgan ediki, bu sharoit bolalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini qulaylik bilan ko`rsata olishlariga (namoyon qilishlariga), ularda o`zini tuta bilishlik, sabat, qatiyat ko`rsatish xislatlarini tarkib toptirishga imkon berdi. O`yinda bolalar ham bo`ysuna bilishni, ham boshliq rovida chiqishni o`rganib olishdi. Bolalar o`indan ko`p narsani o`rganishdi va keyin buni

lager hayotiga ko`chirishdi: bu narsa otryadlar tuzishga, intizomni mustahkamlashga yordam qildi.

Ochiq havoda birgalikdagi o`yinlar bularning axloqiy va estetik hislarini hamtarbiyalaydi: bu o`yinlar jonajon tabiatni ko`ra bilishga va sevishtga o`rgatadi, bolalarda o`rmon (daraxtzor), daryo, (soy) va ko`lning chiroyli ranglariga havas tug`iladi. O`yin tasiri bilan hatto bolalarning nutqi ham o`zgardi: ular tabiat haqida yoqimli ifodalarni tez-tez ishlatadigan bo`lib qolishdi.

Katta yoshli odamlar rahbarligida o`ynaladigan, muayyan maqsadga qaratilgan o`yinlar bolaning har tomonlama kamol topib borishiga katta tasir ko`rsatishi mumkin: bunday o`yinlarda shaxs manaviy qiyofasining negizi quriladi.

1-2 sinf o`quvchilari ashula aytib aynaladigan o`yinlar va xorovodlarga hali ishqivoz bo`laverishadi, ularga ritmli (bir maqomdagi) o`yinlar, hayvonlarning harakatlari va ovozlariga taqlad qilinadigan o`yinlar yoqadi. Shu yoshdagi bolalar maktabda ham, hovlida ham bunday o`yinlarni jon deb o`ynayverishadi. Kichik yoshdagi o`quvchi bolalar teatr-teatr o`ynashni yaxshi ko`rishadi, pesalardan, hikoyalardan syujetlar olib, improvizatsiya qilingan postanovkalar ko`rsatishadi. Ular tegishli rollarni ijro etisharekan, o`zlarining xayolidagi voqeada ishtirok etuvchi shaxs boshdan kechirayotgan narsalarni boshdan kechirishadi, shu sababli odamlarning muayyan vaziyatdagi o`zaro munosabatlarni yaxshiroq anglab, bilib olishadi.

3-sinf o`quvchilarining o`yin faoliyatida syujetsiz qoidali o`yinlar tobora katta o`rin egallay boradi: bolalar sport o`yinlariga asta sekin ko`cha boradilar. Futbol, voleybol, tennis, gorodki, xokkey, lapta (polka o`yini) ko`p o`ynaladigan sport o`yinlaridir.

Sport o`yinida qatiy rioya qilinadagan qoidalar bo`ladi, lekin, bundan tashqari, bu o`yinlarda musobaqa payti katta ahamiyatga ega bo`ladi. Sport o`yilari qoidalar bilan cheklangan bo`lsa-da, o`yinchining tashabbus ko`rsatishiga imkon beradi: o`yinining o`zgarib turadigan sharoiti o`yinchilardan ziyraklikni (zehni o`tkirlikni), chaqqonlik va epchillikni talab etadi. O`yinchi o`z harakatlarini o`rtoqlarining

harakatlari bilan moslashtirib borishi, ularning rejalarini va o`yinni olib borish xatti-harakatini (taktikasini) payqab ola bilishi kerak.

Sport o`yinlarida bolalar o`yin jamoasida intizom bilan o`zini tuta bilishga, o`rtoqqa yordam ko`rsatishga, o`z harakatlarini jamoa harakatlari bilan moslashtirishga va o`yinda voqealarning borishini oldindan payqab olishga o`rganishadi. Shu tariqa shaxsning ijobiy sifatlari mustahkamlana boradi.

1-2 sinflar o`quvchi bolalarining harakatli o`yinlarida har xolda shaxsiy javobgarlik ustunlik qiladi, biroq shu o`yinlarda ham, garchi odatda birinchi sinf o`quvchilarining jamoa harakatlari (hatto oddiy o`yinlarda ham) hali yomon moslashtiriladigan bo`lsa-da, jamoa harakatlar asta- sekin kiritila boshlaydi. Bolalar ulg`aya borgan sari o`yinda musobaqa tobora katta o`rin egallaydi. Dastlab o`yinlar, asosan shaxsiy birinchilikni olish uchun kurash harakteriga ega bo`ladi. Kattaroq (11-12 yashar) bolalar to`dalarga bo`linib o`ynay boshlaydilar. Kichik yoshdagi o`quvchi bolalar kattta yoshli odamlar ishqivoz bo`lgan sport o`yinlarini ham jon deb o`ynayveradilar.

Maktab yoshidagi kichik bolalarda futbolga, voleybolga, xokkeyga ham xavas tug`iladi, lekin bolalar hali kerakli malaka va ko`nikmalarga ega bo`lmaganliklari sababli o`yin qoidalarini o`zlashtira olmaydilar, shu tufayli o`yin mukammal bo`lmaydi.

Kichik yoshdagi o`quvchi bolalarning o`z kuch va imkoniyatlarini bilib olishga, o`zlarini sinab ko`rishga intilishlari tasiri ostida ham («men bu ishni qila olamanmi?») sport o`yinlari paydo bo`lmog`i mumkin. Bolalar ko`ngilda o`ylangan narsani bajarib bo`lgach, o`z oldilariga yangi vazifalar qo`ya olishlarini mamnuniyat bilan takidlab o`tishadi va yangi vazifalarni qo`yishadi.

3- sinf o`quvchilarining harakatlari sport o`yinlarida tobora chaqqon, epchil, hamjihat bo`lib boradi. Jamoa o`yin rivojlana boshlaydi. O`yinning murakkablashuvi tufayli o`z hatti- harakatlarini boshqa o`yin qatnashchilarining harakatlari bilan moslashtira bilish talab qilinadi. Jamoaga bo`ysunish, jamoada harakat qilish, jamoa sharafi uchun kurashish, o`rtoqni qo`llash, kelishib birgalikda harakat qilish mahorati osha boradi.

Maktabda jismoniy tarbiya mashg`ulotlarining tasiri bilan o`quvchilarda o`yinchilar uchun zarur bo`lgan sifatlar paydo qilinadi: ular sakrashlarni, irg`itishni o`rganib olishadi, jasur bo`lishadi va mahorat qozonishadi, epchil va chaqqon bo`la borishadi. O`yin qoidalarini bajarish uchun masuliyatni his etish o`quvchilarda sofdillik, samimiyat va printsiptiallik xislatlarini tarbiyalaydi.

Sport o`yinlarida bola birdamlikni, hamjihatlikni his etganligi, umumiy kurash va g`alaba quvonchini sezganligi tufayli u sport o`yinlaridan juda xursand bo`ladi.

Boshlang`ich maktab o`qituvchisi, odatda sport o`yinlari bolada shaxsga xos bo`lgan muhim sifatlarni muvaffaqiyat o`stira borishni esda tutib, o`zining sinfdan tashqari olib boradigan ishida bu o`yinlarning tarbiyaviy tasiridan keng suratda foydalaniladi.

2.3. O'quvchi shaxsining tarkib topishida mehnat faoliyatining roli.

Maktabning boshlang'ich sinflarida mehnat ta'limi-bolalar politexnik ta'limining birinchi bosqichidir.

Maktab ta'limining dastlabki yillaridan boshlab maktabda o'qishning oxirigacha o'quvchilarda mehnatga munosabat tarkib topa boradi, ishlash havasi (istagi) va ko'nikmasi, mehnatkashlarga muhabbat va hurmat tarbiyalanadi.

Maktabda mehnat ta'limi bolani mehnatga psixologik jihatdan tayyorlaydi: u mehnatning odamlar hayotidagi ahamiyatini anglab oladi, o'quvchi bola mehnat quvonchisini sezadi, jamiyatga kerakli moddiy boyliklarni yarata borib, yashash va ishlash istiqboli kengaya boradi.

O'quvchi bolaning mehnat darslarida hosil qiladigan dastlabki mehnat malakalari unda ancha murakkab mehnat ko'nikmalarining tarkib topishi uchun juda muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat protsesslarini egallashning ayniqsa birinchi bosqichida bu protsesslar boladan puxtalikni, zo'r berishni, jiddiy diqqat qilishni talab etadi. Bir narsaga juda berilib ketish maktab yoshidagi kichik bolalarning hamisha ortiqcha va o'rinsiz kuch sarf qilishlariga sabab bo'ladi, faqat ishlovchi organlarning muskullarigina emas, balki mehnat operatsiyasida ishtirok qilmaydigan muskullar ham juda zo'riqib qoladi. Chunonchi, bola qo'l bilan harakat qilganda kuchanish, ko'pincha ko'krak, orqa va oyoqlar muskullarining harakatida ham ko'riladi, demak, ko'pgina muskullar zo'r ish holatida bo'ladi, bu muskullar hatto harakatlar o'zgarganida ham dam olmaydi, bu esa umuman bola organizmining juda toliqib qolishiga sabab bo'ladi.

Eng oddiy asbob va materiallar bilan ishlash o'quvchilarni ustaxonada ancha murakkab asboblardan bilan ishlashga tayyorlaydi. Dastlabki mehnat malakalari juda mustahkam bo'ladi va odatda odamda umrbod saqlanib qoladi. Shuning uchun bu malakalar chiroyli, maqsadga muvofiq va chaqqon harakatlarning tobora rivojlantirishga yordam berishi muhimdir.

Agar mashg'ulotlar to'g'ri, qiziqarli tashkil etilgan bo'lsa o'quvchilar zo'r mamnuniyat bilan ishlashadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidayoq bolalarda (xususan o`g`il bolalarda) mashinalarga , tehnikaga, tehnikani egallagan va murakkab asboblarni boshqaradigan kishilarga barqaror qiziqish tarkib topa boradi.

Bolalar katta yoshli kishilar mehnatini kuzatishar va mehnatning odamlar hayoti uchun ahamiyatini anglab borishar ekan, katta yoshli odamlarning o`z mkhnati haqidagi hikoyalarini tinglashar va kitoblarni o`qishar ekan, o`qituvchining tushuntirishlarini eshitishar ekan, mamlakatimizdagi mehnatkashlarning ahvolini va mehnatini avvalgi davrdagi hamda hozirgi zamon mamlakatlardagi mehnat bilan taqqoslab borishadi.

Bolalar avvalgi davlatlarning odamlarni baxtli va erkin mehnatini qadrlashga o`rganadilar. Ayniqsa boshlang`ich maktab o`qituvchisining mehnatga qiziqish uyg`otishdagi roli juda katta. U bolalarga oldingi kishilarning qahramonona mehnati to`g`risida hikoya qilib, ularda mehnatga va mehnat ahliga ijobiy munosabat tarbiyalab boradi.

Ijtimoiy foydali mehnat, kollektivdagi mehnat, kollektivda vujudga keladigan munosabatlar-bularning hammasi bola uchun yangi narsadir. O`quv yili boshida 1-sinf o`quvchisi kollektivning talablariga bo`ysuna bilmaydi. Ijtimoiy foydali mehnat protsessida mehnat samarasi uchun umumiy javobgarlikni sezish zarurati tufayli 1-sinf o`quvchisi asta-sekin o`zini sinf kollektivining azosi deb anglay boshlaydi.

Birinchi sinf o`quvchisi maktabga xos ijtimoiy foydali mehnat bilan shug`ullana boshlagach (gullar, daraxtlar o`tqazadi, ularni parvarish qiladi va hokazo), u o`z mehnatining boshqa odamlar uchun kerakli ekanligini, o`zining mehnatga, tevarak-atrofdagi odamlarning ishlariga qo`shilayotganligini anglay boshlaydi. O`z mehnatining jamoatchilik uchun foydali ekanligini anglash tufayli o`quvchi bolada ishlashga (mehnat qilishga) havas tug`iladi, u birinchi marta mehnat quvonchini sezadi.

Bola kamol topa borgan sari uning mehnat faoliyati motivlari o`zgara boradi. 1 va 2-sinf o`quvchilarini bir birlariga taqqoslash orqali bu holni kuzatib borish mumkin. 2-sinfda o`quvchilarning tushuncha va bilimlar doirasi tobora kengayadi,

ular endi ancha murakkab mehnat amallarini bajara oladilar, mehnat motivlari va maqsadlari kengaya va chuqurlasha boradi.

O`yniqsa mehnat faoliyatining dastlabki paytlarida 1-sinf o`quvchilarini ish jarayoni mehnat samarasiga qaraganda ko`proq qiziqtiradi.

Birinchi sinf o`quvchilarida ko`pincha o`z mehnat faoliyatining shaxsiy motivlari: o`zi uchun, shaxsan foydalanish uchun narsa yasash yaqqol ko`rinadi. Shu yoshdagi bolalarda shaxsiy motiv (o`zi uchun narsa yasash) hamisha katta ahamiyatga ega bo`lib, bu sharoitda juda ruhlanib ish qilinadi va yaxshi natijaga erishiladi. Bordi-yu, o`qituvchi o`quvchi bolalarda ancha muhim, ijtimoiy motivlarning rivojlanishini rag`batlantirib bormas ekan, ularda mehnat faoliyatining shaxsiy motivlari mustahkamlana borishi mumkin. Bola o`zi uchun sanoq materialini, o`zi uchun xat cho`p, kitoblar uchun o`ziga papka yasashga odatlanib qolar ekan, u o`z mehnat faoliyatida shaxsiy motivlar, shaxsiy manfaat motivlariga amal qila boshlaydi. Agar ish o`zi uchun emas, balki boshqalarning hammasi uchun bajariladigan bo`lsa, faoliyat motivlari o`zgara boradi, masalan, agar o`quvchilar sanoq materialini o`zi uchun emas, balki butun sinf uchun yasaydigan bo`lsalar, ularning mehnat faoliyati o`zgarishi mumkin.

Bola kollektivda va kollektiv uchun ishlagan vaqtda o`z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini asta-sekin anglab oladi, bunday mehnatni qadrlaydigan bo`ladi, shu sababli mehnatning faoliyatining ijtimoiy motivlari o`zi uchun tobora ko`proq ahamiyatga ega bo`ladi va shaxsiy motivlardan ustun turadigan bo`ladi.

Mehnat darslarida o`quvchilar ko`pincha tarqoq holda ishlaydilar, chunki shu yoshdagi bolalarga xos bo`lgan diqqatning tez chalg`ib turishi va mustaqillikning yo`qligi ularga xalaqit beradi: o`quvchi bola o`zining ishni to`g`ri yo noto`g`ri qilayotganligiga shubha qilayotganligi sababli ish ko`pincha to`xtab qoladi, bolaning o`zi buni hal eta olmaydi, u ishini to`xtatib qo`yadi va darhol yordam so`rab o`qituvchiga murojaat qiladi.

Ayrim o`quvchilarning beboshligi (uyushqoq emasligi) shunda ko`rinadiki, ular o`z imkoniyatlariga yarasha ish qilmay, har qanaqa ishga kirishib ketaverishadi: qirqishadi, yopishtirishadi, lekin yomon, palapartish ishlashadi.

Behudaga uriniladi-yu, ammo o`quvchilarning o`zlari buni payqashmaydi, mehnat samaralari esa hatto ularni quvontiradi; ular narsa yasashgan-ku, axir! Bu yoshdagi bolalarni mehnat protsessining o`zi ko`proq qiziqtiradi, ishning sifati esa uncha qiziqtirmaydi.

2- sinf o`quvchilari sinfdan tashqari ijtimoiy foydali ishni 1-sinf o`quvchilaridan ko`ra ko`proq darajada olib borishadi, maktabda umumiy tadbirlarni amalga oshirishda ko`proq qatnashishadi. Garchi bu hali kichkinagina ish bo`lsada, ammo katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki bu qatnashish o`quvchi bolaning katta jamoa azosi ekanligini anglab olishga imkon beradi.

O`quvchilarning maishiy mehnati ham murakkablasha boradi: oilada ular faqat o`z-o`ziga xizmat ko`rsatish bilangina cheklanib qolmay, balki oila azolarining hammasi uchun ham ishlarni bajaradilar, endi ularning muayyan vazifalari (idishlarni yuvish, dasturxon yozib ovqatlanishga idishlarni tayyorlash, magazinga borish va shu kabilar) bor, shu tufayli bolalar bilan oilaning boshqa azolari o`rtasida yangi munosabatlar boshlanadi.

3-sinf o`quvchilarida mehnatga yangi munosabat paydo bo`ladi. Kitoblar o`qish, tarix darslari, atrofdagi odamlar mehnati bilan tanishish, ijtimoiy foydali mehnat, katta yoshli odamlar bilan birgalikda ishlash bolaning odamlar mehnatiga va o`z shaxsiy mehnatiga qarashini o`zgartiradi.

Mehnat protsessining o`zi bolani qiziqtirganligi yoki mehnatning qandaydir samarasi bo`lganligi uchungina emas, balki mehnat faoliyati bilish uchun xiyla qulay sharoit yaratganligi uchun ham mehnatga havas (qiziqish) osha boradi. O`quvchi ishlar ekan, o`zining bilim orttirayotganligini angelaydi, ko`pgina yangiliklarni bilib oladi.

Shu munosabat bilan o`quvchilarning ijtimoiy foydali mehnati, ayniqsa tajriba er maydonidagi ishlari katta ahamiyatga ega bo`ladi. Masalan, bir maktabning 3-sinf o`quvchilari zig`irpoyani parvarish qilishdi, shundan keyin ular zig`irni parvarish qilish haqida ko`pgina yangi narsani bilib olishgani va endilikda mo`l hosil olish uchun kelasi yilga mo`ljallab nima qilish kerakligini bilishlarini maroqli qilib gapirib berishdi.

3-sinf o`quvchilarining katta yoshli odamlar mehnati va hozirgi zamon texnikasi bilan tanishish jarayonida yangi narsani bilib olish istagi tug`iladi, ammo bu- 1 va 2 sinflardagi kabi istak emas, chunki u vaqtlarda oddiy javob ham o`quvchi bolalarni qanoatlantiraverardi. 3-sinf o`quvchilari biror hodisaning qanday yuz berishini o`z ko`zlari bilan ko`rishni xohlaydilar, ularda qiziqarli ishda ishtirok qilish istagi paydo bo`ladi. O`quvchi katta yoshli kishining o`z mehnati bilan ko`p narsa qila olishini anglaydi. O`quvchining o`zi biron narsa qilishga intilishida: «Men nimani uddalay olaman» degan masalani echadi. Agar mehnat jarayonida u etarli natijagsha erishsa, o`quvchi: «Men ham uddalay olaman» degan xulosaga keladi. «Men o`zim ishni uddalay olaman» deb anglash bolaning o`z kuchiga ishonchini oshiradi, unda ishlash va yangi bilim orttirish ishtiyoqi tug`iladi.

O`quvchi bolalarda o`qituvchi tomonidan uyushtiriladigan izlanish va tekshirishlar tasiri ostida mehnatga havas va ijobiy munosabat tarkib topadi. Masalan, bir o`qituvchi 4-sinfga kartoshkani yaravizatsiyalash vazifasini topshirdi. O`quvchilar kartoshka etishtirishda o`g`itlar va yarovizatsiyalashning qanday muhim rol o`ynashiga amalda ishonch hosil qilishdi.

Shaxsning bilishga qiziqishlari shu tariqa tarkib topib, mustahkamlana boradi.

O`quvchilarning ijtimoiy foydali mehnati sinfdagi mehnat mashg`ulotlari bilan uyg`unlasha borgan sari kichik yoshdagi o`quvchi bolalar mehnatining tarbiyaviy ahamiyatini ayniqsa osha boradi. Masalan, agar o`quvchilar gul tikish va kashta tikishni o`rganishar ekan, dasturxon va salfetkalariga gul tikib, bularni qo`riq er ochib, yangi kelib o`rnashgan kishilarga sovg`a qilishadigan bo`lsa, ishning ijtimoiy ahamiyati ortadi, shu tufayli bolalar ishni mumkin qadar yaxshiroq bajarishga ishtiyoqmand bo`lishadi.

Mehnat jarayonida o`quvchilarning aktivligi oshadi, ularning o`yin va o`quv faoliyatida ko`rinmaydigan yangi xislatlar tarbiyalanadi. O`quvchilar ko`pincha mehnat jarayonida o`z o`quvchilarining qobiliyatlari va mayllarini, ularning ishlash ko`nikmalari va mehnatga munosabatlarini bilib olishar ekan, yangi narsani «kashf qilgandek» bo`lishadi.

Agar kichik yoshdagi o`quvchi bola o`z mehnatining oqibatlari bilan qiziqmasa va ish uning uchun ko`ngilsiz (noxush) majburiyat bo`lib, uni faqat o`qituvchining kuchli nazorati ostidagina bajaradigan bo`lsa o`quvchi bolalar mehnatining ijtimoiy ahamiyati yo`qoladi.

Bolalar mehnati bemaqsad (behuda) bo`lgan, mehnat samaralari esa hech kimga kerakli bo`lmagan hollarda mehnatga salbiy munosabat tarkib topadi. Masalan, bir maktabning 3-sinf o`quvchilari maktab er maydonida ishlashdan bo`yin tovlashgan. Bolalarni ishlaga majbur qilishganda esa ular ishni o`yinga aylantirib, palapartish ishlashgan. O`quvchi bolalarning mehnatga bunday munosabatda bo`lish sababini oydinlashtirish natijasida shu narsa aniqlanadiki, o`tgan yili bolalar bajonu-dil ishlashgan, jo`yak tortib, sabzovot va gullar ekishgan, butalar o`tqazishgan, ammo ular tatildan keyin kuzda bog`ni emas, balki futbol maydonini ko`rishgan, ekinlar esa barbod qilingan edi.

2 va 3 sinflar o`quvchi bolalrining mehnat faoliyatida ijtimoiy motivlar tobora kataroq ahamiyatga ega bo`ladi. Shaxsiy motivlar hali sodir bo`laveradi, lekin o`quvchilarning shaxsiy motivlari bilan ijtimoiy motivlari bir- biriga mos kelganda ulaning faoliyati ancha yaxshilana boradi. Betartib va bemaqsad mehnat o`quvchilarda mehnatga salbiy (noxush) munosabat tarbiyalaydi, shaxsga xos beburdlik, intizomsizlik kabi salbiy xususiyatlarni kuchaytiradi.

Betartib mehnat mashg`uloti bolalarda xo`rlanish, norozilik hissini uyg`otadi, ular mehnatga berilmay, yoqtirmay ishlaydilar va tez orada mehnatni tugallashga intiladilar.

Ana shunday sharoitda faqat ayrim bolalardagina emas, balki butun sinf o`quvchilarida mehnatga salbiy munosabat tarbiyalanadi.

Taritibli meshnat bolalarni quvontiradi, mamnun qiladi, ularga mehnat rohatini bag`ishlaydi va ularni ishlashga havaslantiradi.

Boshlang`ich maktabda mehnat darslarini tashkil etish avvalo o`qituvchiga bag`liqdir, u o`quvchilarning individual mehnatini ham, jamoa mehnatini ham tashkil etadi. Agar o`quvchining ish joyi batamom tartibga solinmagan bo`lsa, yani asbob va materiallar tegishincha joylashmagan bo`lsa, uning diqqati ishga

qaratilmagan bo`lsa, o`quvchining ish boshlashiga ruxsat bermaydigan o`qituvchilar to`g`ri ish qilishadi. Ravshan maqsad va ish plani, ishni qanday bajarish va qanday izchillikda bajarish kerakligini bilish- tartibli mehnatning zaruriy shartlaridir.

O`qituvchining sistemali suratda olib boradigan ishi va bolalar mehnatini uyushtiradigan talabalari mehnatda muayyan va ko`nikib ketiladigan tartibni yuzaga keltiradi, o`quvchilar uyushqoqlik (hamjihatlik) bilan ishlashga odatlanib qoladilar, ulardan uyushqoqlik shunchaki tasodifiy hol emas, balki harakter xislati tariqasida tarbiyalana boradi.

Bizga bazi bir o`quvchilarning uyushqoqlikni noto`g`ri tushunayotganliklarini kuzatishga to`g`ri kelgan edi. 1-sinf o`quvyailari maktab yer uchastkasida ishlab, no`hat ekish paytida shunday manzara ko`rsatilgan edi. O`qituvchi bolalarni jo`yak yonida saf qilib, ularga ishni bajarish izchilligi haqida gapirib, ish bosqichlarini aniq belgilab berdi, shundan keyin komanda bera boshladi: «Bir-hamma chap qo`liga no`xat olsin, ikki-o`ng qo`lga tayoqcha olinsin, uch-cho`kkalab o`tirilsin» va hokazo. Butun eshik jarayoni shu tariqa «uyushtirildi».

O`qituvchi o`zi noto`g`ri tushungan ana shu uyushqoqlikni qatiy bir qolipga aylantirgan, bu esa bolaning tashabbusini bo`g`ib qo`yadi, uni mustaqillikdan mahrum qiladi, mehnat quvonchini tarbiyalamaydi. Mehnatning chinakam yaxshi tashkil qilinishi bolaning tashabbusi va uyushqoqligini har taraflama oshira boradi.

Uyushqoqlikning boshlang`ich bosqichi-taqlid qilishdir. O`qituvchi maktab bolasiga mehnatni qanday tashkil etish va ish joyini qanday tartibga solish kerakligini, ishni qanday planlash, ishni nimadan boshlash kerakligini ko`rsatib beradi.

Mehnat ta`limi jarayonida taqlid qilish umuman hamma vaqt ro`y beradi: «Mana, mening qanday ish qilishimga razm sol, o`zing ham shunday ish qilishga urinib (harakat qilib) ko`r», – deydi o`qituvchi. Bordi-yu o`quvchi bola yanglishib qoladigan bo`lsa, o`qituvchi uning kam-ko`stini tuzatadi va yana: «Sen men aytgandek qilmayapsan, tag`in bar marta razm sol va ishni to`g`ri bajar»,-deydi.

Ta'limning dastlabki bosqichlarida o`qituvchi yo`l-yo`rig`ining o`zi o`quvchining taqlid qilishini talab etadi.

O`quvchi bola bazi boshlanich malakalarni hosil qilib, mustaqil ravishda ishlay oladigan bo`lgach, u mehnatiga o`z individual xususiyatlarini aks ettiradigan ijodiy jihatlarni kirita boshlaydi.

O`quvchi malum bir ishni bajarish uchun zarur bo`lgan malaka va ko`nikmalarni egallab, qanday ishlash kerakligini bilib olganidan keyingina mustaqil ishlay oladi, qanday harakat qilish va ishni qanday izchillik bilan bajarish kerakligini o`zi hal etib, mustahkamlanib qolgan ko`nikma va bilimlarni yangi sharoitda qo`llana boshlaydi. O`quvchi dastlab o`qituvchining bevosita ishtirokida amaliy vazifalarni hal qilar ekan, u o`z mustaqilligini oshira boradi.

Lekin shuni ko`rsatib o`tish kerakki, ko`pgina birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari ayniqsa mehnatga o`rgatishning dastlabki vaqtlarida mehnat protsessining butun izchilligini, hamma ishlarni birday esda qoldirolmaydilar. Faqat o`qituvchining muntazam suratda olib bordigan ishi o`quvchilarni ishning izchilligini esda qoldirishga o`rgata boradi. Bordi-yu maktab bolasi ish-harakatlar izchilligini esdan chiqaradigan bo`lsa ham, o`qituvchi o`quvchiga ishni to`xtatmasdan, tashabbus va mustaqillik ko`rsatib, o`z bilimidan foydalanib, belgilangan maqsadga erishish yo`llarini izlashga maslahat beradi.

Shu tariqa, o`qituvchi rahbarligida bolalarda shaxsning muhim sifatlari- sabotmatonat, maqsad ko`zlash xislatlari tarbiyalana boradi.

O`qituvchi o`quvchilar mehnatini tashkil qilar ekan, ularni o`z xatolarini sezib, bularni faxmlashga o`rgatadi. Bu yoshdagi bolalar boshqalarning ishidagi xatolarni bemalol payqab olishadi, ammo o`z kamchiliklarini hali yaxshi faxmlab olisholmaydi. Ishdagi kamchiliklar va ijobiy tomonlarni birgalikda muhokama qilish o`quvchi bolalarni faqat birovning ishigagina emas, balki o`z ishiga ham tanqid ko`zi bilan qarashni o`rgatadi, o`z kamchiliklarini ko`ra bilishga, foydali maslahatlarni xotirjamlik bilan tinglashga, bunda xafa bo`lmay o`zini tuta bilishga o`rgatadi.

Ish metodlarini va uni tashkil qilishni o`zgartirish ishni planlashtirishni ham o`zgartirishga sabab bo`ladi. O`quvchi bola hali o`qituvchi taklif qilgan planga muvofiq ishni davom ettiradi, lekin ayrim ishlarni mustaqil suratda bajarishga, ishlarning izchiligiga rioya qilib, o`z ishini mustaqil ravishda planlashtirishga asta- sekin o`rganadi. O`quvchi o`qituvchi taklif etgan ish planiga o`zicha sekin- asta yangilik kirita boradi- garchi hali juda oddiy shaklda bo`lsada, ammo ijodiy faoliyat boshlanadi, mustaqillik, maqsad ko`zlash, uyushqoqlik tarkib topadi, bu xislatlar o`qituvchining tarbiyaviy tasiri ostida o`quvchi xulq- atvorining odatlanib qolingan shakllariga aylanadi.

Rejalashtirish o`quvchi bolaning mehnat faoliyatida tobora ko`proq ahamiyatga ega bo`ladi, bu planlashtirish uni bo`lajak faoliyatga tayyorlaydi.

Mehnat darslaridagi mashg`ulotlar jarayonida o`quvchilarning individual farqlari namoyon bo`ladi.

Bazi bolalar qiynalib qolishadigan bo`lsa, ishni darrov to`xtatishadi va o`qituvchining yordamini kutishadi. Odatda, bunday bolalar- faqat maktabdagina mehnat bilan shug`ullanib, uyda hech narsani o`z qo`li bilan yasamaydigan va hech qanday ishni bajarmaydigan o`quvchilardir. Bunday bolalar ko`rsatma olishgach, ishni davom ettirishadi, lekin ulardan bazilari: «Bari bir hech qanday natija chiqmaydi», - deb yoki: «Men uddalay olmayman»,- deb ishni to`xtatishadi.

Bunday o`quvchilarni bazi vaqtda ishga qo`shish qiyin bo`ladi va agar ularga o`z vaqtida etibar berilmasa, ularda ta`limning boshlanishidayoq mehnatga salbiy munosabat tarkib topadi. Bunday munosabat ko`pincha, bolalar mehnati-ta`lim emas, balki ermak, deb hisoblanadigan oiladagi mehnatga qarashlar bilan bog`liq bo`ladi.

Ishning borishida qiyinchiliklarga uchragan bazi o`quvchilar masalani mustaqil ravishda hal qilish haqida o`ylab, buning uchun yo`l qidira boshlaydilar. Tegishla malaka vo`a ko`nikmalarga ega bo`lmagan bu maktab bolalari xato qiladilar, ishni buzib qo`yadilar: ular o`z imkoniyatlarini hisobga olishmay, o`zlarining bunday faoliyati qanday natijaga olib borishini o`ylashmay, ishlay boshlaydilar.

Nihoyat, shunday kichik yoshdagi o`quvchi bolalar ham borki, ular mehnat qilish paytida maqsadga muvofiq harakat qilib, endi o`z imkoniyatlariga malum darajada baho bera boshlaydilar. O`qituvchi rag`batlantirib qo`yadigan bu o`quvchi bolalar, ayniqsa oson va qisqa muddatli ish bo`lsa, o`z ish harakatlarini yaxshi o`ylab, planlashtiradilar, qiyinchiliklar yuz bergan paytda masalani mustaqil hal etishga urinadalar.

O`qituvchi 1-4 – sinflarda mehnat darslarida mashg`ulotlarni to`g`ri uyushtiradigan bo`lsa planli mehnat shaxsning ijobiy sifatlarini: uyushqoqlik, intizomlilik, diqqatlilik, kuzatuvchanlik xislatlarini o`stira boradi. Kichik yoshdagi o`quvchi bolalar mehnati o`qituvchining ularga xos individual xususiyatlarni yaxshi bilib olishiga, ularning ijodiy imkoniyatlarini aniqlashiga, muayyan qobiliyatlarini o`stirishga imkon beradi.

O`qituvchi darslarda ham, mehnat mashg`ulotlarida ham o`quvchilarning muhim sifatlarini muntazam suratda o`stira borar ekan, bu muhim sifatlarini taraqqiy ettirish jarayonida sezilarli siljishlarni ko`rib, o`z ishining samaralaridan mamnun bo`ladi.

XULOSA

Shunday qilib o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida, bola shahsining kamol topishida, tarbiya jarayonida turli faoliyatning ahamiyati juda katta.

Kichik maktab yoshi o'quvchilariga tashqi olamdagi narsa va hodisalarni, turli faoliyatlar orqali, hamda o'qituvchining turli harakatlariga taqlid qilish asosida o'quvchilar faoliyatlari shakllanib boriladi.

O'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari jarayonlari o'qituvchining xatti-harakatlari asosida shakllanib, o'yvchida bilish jarayonlarining taraqqiy etishiga ta'sir etadi.

Kichik maktab yoshdagi bolalarga faoliyatning turli hususiyatlarini rivojlantirishda, faol harakatlar, hamda o'qituvch faoliyatining ahamiyati katta bo'ladi. Turli faoliyatlar o'quvchilarning yangi tasavvurlarini olamiga kirishga yordam beradi. O'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari oqrali bolalarda xayol, diqqat, ong, tafakkur, hotira, nutq rivojlanadi.

Buning uchun dars jarayonida turli rolli obrazli va rivojlantiriluvchi o'yinlarni ko'proq kiritishlari va ulardan doimiy samarali foydalanish lozim.

O'yin, o'qish va mehnat faoliyati o'quvchi shahsining qimmatli sifatlarini rivojlantirish va mustahkamlash imkonini beradi. O'yin, o'qish va mehnat faoliyati oqrali bola kishilik jamiyatida o'zining va o'zgalarning xatti- harakatlarini real persanajning hatti – harakatlari bilan taqqoslab bola zarur tomonlarini solishtirish va baholashni amalgam oshiradi.

O'qish, o'yin va mehnat faoliyatini amalga oshirish va tashkil qilish o'qituvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan holning o'zi ta'limda turli yo'nalishlarida o'quvch shaxsini tarkib toptirish va tarbiyalash imkonini beradi.

O'yin, o'qish va mehnat faoliyati o'quvchi shaxs taraqqitining muhim sharti hisoblanadi. O'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari o'quvchilarning ijodiy imkoniyotlarini erkin namoyon qilish uchun zarurdir.

O'quvchilar o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari orqali o'z ehtiyojlarini qondiradigan va himoya qilgan holda, shaxsning to'laqonli rivojlanishini amalga

oshirish uchun hatto zarur bo'lgan narsalarga qarshilik qiluvchi sabablarni bartaraf qilish usullarini topadi.

Shunday qilib o'quvch shahsining kamol topishida o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari jarayonida murakkab va qulay samarali, faoliyat sifatida odamning turli tuman faoliyatlarda nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Bolaning shahs bo'lib shakllanishining hamma faoliyatlarning ahamiyati kattadir.

Bu faoliyatlarni shakllanishda o'qituvchining rolini alohida aytib o'tish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T – 2008
2. I. A. Karimov “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz” Toshkent – 2006 yil.
3. Karimov I.A.Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «O`zbekiston», 1997.
4. I. A. Karimov “Barkamol avlod orzusi”. Toshkent – 1999y.
5. A. V. Petrovskiy “Umumiy psixologiya”. Toshkent. “O'qituvchi” – 1992y.
6. X. Ibragimov, U. Yo'ldoshev, X. Bobomirzaev “Pedagogik psixologiya”. Toshkent – 2007 y.
7. D. Zunnunova “Bolangizni bilasizmi?”. Toshkent – 2009 y.
8. F. N. Ganobolin “Psixologiya”. Toshkent – 1976y.
9. P. I. Ivanov “Umumiy psixologiya”. Toshkent – 1967y.
10. Q. Daminov “Psixologik atamalar izohi”. Samarqand – 1994y.
11. G'oziev“Psixologiya”. 1994y.
12. F.I.Xaydarov, N. I. Xalilova “Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi”. Toshkent – 2006y.
13. Z. T. Nishonova “Bolalar psixologiyasini o'qitish metodikasi”. Toshkent – 2005y.
14. Z. T. Nishonova “Eksperimental psixologiya”. Toshkent – 2006y.
15. T. Berdiev, A. Ibragimov “Rahbar psixologiyasi”. Toshkent – 2005y.
16. Z. T. Nishonova “Oliy maktab psixologiyasi”. Toshkent – 2003y.
17. Z.T.Nishanova, Sh.T.Tulyaganova O'smirlik davrida qo'quv holatlarining namoyon bo'lishi T-2009 y.
18. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish – T., O'qituvchi 1984 – 224 bet.
19. Xasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi – T. O'qituvchi 1996 y. – 86 bet
20. Rasulova M., Abdullayeva q., Safarova L. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi – T.:O'zPFITI, 1999 yil 16 bet.